

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**FAYZIYEV SHOXOBIDDIN NURIDDINOVICH
AVAZOV ILXOM RAVSHANOVICH
QO‘SHMATOV OTAXON QURBONALIYEVICH**

AUDITORNING KASB ETIKASI

(DARSLIK)

**MAGISTRATURA MUTAXASISLIGI
5A230902 – Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)**

TOSHKENT-2022

UO‘K:

KBK:

SH.N.Fayziyev, I.R.Avazov, O.Q.Qo‘shmatov. Auditorning kasb etikasi. (Darslik). – T.: «Nihol print» OK, 2022. 136 bet.

ISBN 978–9943–

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy ta’limning 230000- «Iqtisod» ta’lim sohasidagi 5A230902 – Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura ta’lim mutaxassisligi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda auditorlar kasbiga oid hulq-atvori, yani auditorlar umumiy maqsadni amalga oshirishlari uchun rioya qilishlari lozim bo‘lgan ahloq-odobning asosiy tartiblariyoritib berilgan. Auditorlar faoliyatini tartibga solishning ahloqiy mexanizmi ma’muriy va iqtisodiy mexanizmga qo‘shimcha hisoblanadi.

UO‘K:

KBK:

Taqrizchilar:

A.A.Karimov – Toshkent moliya instituti «Buxgalteriya xisobi» kafedراسi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor;

N.Karimov – O‘zbekiston Auditorlar palatasi kengash raisi iqtisod fanlari doktori, professor.

ISBN 978–9943–

© SH.N.Fayziyev, I.R.Avazov, O.Q.Qo‘shmatov. 2022.

© «Nihol print» OK nashriyoti, 2022.

KIRISH

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini tekshirish va ularga holisona baho berish daxlsiz auditorlar va auditorlik tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan. Shu bois iqtisodiyotimizda auditorlik xizmati bozori vujudga keldi. Auditorlar o‘zaro tuzilgan shartnomalarga asosan turli mulkdagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini ekspertizadan o‘tkazadilar, noqonuniy operatsiyalarni aniqlash hamda korxonalar samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan tavsiyalar beradilar. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini auditorlik tekshiruvlaridan o‘tkazuvchi auditorlik tashkilotlarida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 26 noyabrda PK-1438-sonli Qarori katta ahamiyatga ega. Qaror audit sohani 2011-2015 yillarda rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi. Unda ta‘kidlanishicha, "...auditorlik kompaniyalarining rolini yanada oshirish xamda tarmoqni rivojlantirish, xalqaro normalar va standartlarga muvofiq, ularning barqarorligi va samaradorligini ta‘minlash, ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar turi va ko‘lamini kengaytirish, moliya bozori infratuzilmasi institutlarini mustaxkamlash zarur".¹

O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida 2013 yildan boshlab, Respublikamizda audit auditorlik faoliyatining milliy standartlari hamda Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi huzuridagi Xalqaro Auditorlik Amaliyoti Qo‘mitasining rasmiy ruxsati bilan mamlakat qonunchiligiga zid kelmagan holda davlat tilida chop etilgan auditning xalqaro standartlari asosida amalga oshirish mumkinligi belgilangan.

Auditor o‘zining jamiyat oldidagi mas’uliyatini tushunishi uning farq qiluvchi xususiyati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 19-sentyabr PQ-3946-sonli Qarori qabul qilindi. Auditorlik tashkilotlariga bo‘lgan talablar takomillashtirish yani auditorlik tekshiruvlari tashkil etish faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi

¹ Karimov I.A O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada islox qilish va barqarorligini oshirish xamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida"gi PQ-1438-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2010 y., 48(444)-son, 442-modda.

tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari (qoidalari) asosida amalga oshirish belgilandi.

Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi tomonidan professional buxgalterlarning axloq kodeksi ishlab chiqildi.

Auditor kasbi ta'sischi, kreditorlar, hukumat, ish beruvchilar, yollangan xodimlar, investorlar, ishbilarmon va moliyaviy doiralar tijoratining faoliyat ko'rsatishini qo'llab-quvvatlashi uchun auditorlarning ob'ektivligi va haqqoniyligiga tayanadigan barcha mijozlar o'zaro faol ta'sir ko'rsatadilar. Bu auditor kasbiga jamiyat oldidagi mas'uliyatni yuklaydi. Jamiyat manfaati ijtimoiy faravonlik sifatida aniqlanib, auditor shuning uchun ishlaydi.

Professional buxgalterlar(auditorlar) axloq kodeksida quyidagi me'yorlar mavjud:

- umum e'tirof etilgan axloq me'yorlari va tamoyillari;
- davlat manfaatlari auditorning xolisligi va diqqatligi;
- auditorning professional salohiyati;
- mijozlar haqida maxfiy ma'lumot;
- soliq munosabatlari;
- professional to'lovlar;
- auditorlar o'rtasidagi munosabatlar;
- auditorlik firma bilan xizmatchilar munosabatlar;
- ommaviy axborot va reklama;
- auditorning mos kelmaydigan xatti-harakatlari;
- boshqa davlatlarda audit xizmatlari.

Auditorlar faoliyatini tartibga solishning ahloqiy mexanizmi ma'muriy va iqtisodiy mexanizmga qo'shimcha hisoblanadi.

Kasbga oid hulq-atvor ahloqi auditorlar uchun hulq-atvor standartlarini o'rnatadi va auditorlar umumiy maqsadni amalga oshirishlari uchun rioya qilishlari lozim bo'lgan asosiy tamoyillarni belgilaydi. Barcha vaziyatlarda mazkur Kodeksning asosiy maqsadi bilan hisoblashish kerak.

1-BOB.KASBGA OID ETIKA: TUSHUNCHASI, TURLARI, KODEKSLAR

1.1. Etika, odob-ahloq va kasbiy qadriyatlar

1.2.Kasbiy etika tushunchasi

1.3.Kasbiy etika turlari

1.4.Kasbiy etika kodekslari

1.5.Etika Kodekslarini qabul qilinishining sabablari

1.6. Kasbiy etika kodeksining mohiyati

1.1. Etika, odob-ahloq va kasbiy qadriyatlar

Etika tushunchasi insonlarning shaxsiy va kasbga oid odob-ahloqlarini tartibga soluvchi normalar yig'indisi bilan bog'liqdir. Qoida tariqasida, ushbu normalar muayyan bir jamiyat uchun turli kategoriyadagi fuqarolarni, jamoalarni va guruhlarni himoya qilish maqsadida ishlab chiqiladi.

Etika (grek tilidan olingan bulib, “urf odat, rasm rusum”) - odob va ahloq qoidalarini falsafiy jihatdan o'rganadi.

Moral -ya'ni, odob-ahloq (lotin tilidan olingan bulib ,*moralitas* – umum tan olingan an'analar, kishi bilmas qoidalar manosini anglatadi) - jamiyatda yaxshi va yomon, to'g'ri va noto'g'ri, yaxshilik hamda yomonlik haqidagi qarashlar, shuningdek ushbu qarashlardan kelib chiquvchi yurish turish qoidalari yig'indisidir. Etika, o'z navbatida, odob axloq haqidagi ilmni aks ettiradi.

Odoblilik - bu shaxsning ichki holati, tuzilishi bo'lib, u o'zining mustaqil hoxish irodasi va o'z vijdonidan kelib chiqib harakat qilishini bildiradi. Aksariyat hollarda odoblilik moral so'zining sinonimi sifatida qaraladi.

Insonning qadr qimmatli yo'nalishlarini o'rganish nafaqat bilishga oid ma'no mazmunga ega, balki ulkan amaliy malakaga ham ega bo'lishga ko'mak beradi.

Qadriyatlar -bu:

- Ijtimoiy aloqalarning maqbul holatidir;
- Voqea va hodisalarni baholash mezonidir;
- Maqsadga yo'naltirilgan faoliyat mazmunidir;
- Jamoaviy o'zaro faoliyatning tartibga soluvchisidir.


Shu asnoda, mazkur qadriyatlar insonlarga xos bo'lgani kabi jamiyatga ham yuzaga keluvchi vaziyatlar haqida fikr yuritish, ob'ektiv holatlarni bir butunligini tan olish va baholash, keyinchalik esa, inson

yurish turishini tartibga solish maqsadida ushbu holatlar yuzasidan maqbul echimni topishga imkon beradi.

Kasbga oid odoblilik -bu ma'lum bir kasb faoliyatida qo'llaniladigan umuminsoniy odob ahloq printsiplar xisoblanadi.



Kasbga oid odoblilik



Bu ma'lum bir kasb faoliyatida qo'llaniladigan umuminsoniy odob ahloq printsiplar xisoblanadi

Umuminsoniy qadriyatlar, qoida tariqasida, muayyan bir jamiyatga tegishlidir hamda oilada vujudga kelgan urf odat va an'analar, maktabdagi tartib va qoidalar, ijtimoiylashuv jarayon ta'siri natijasida insonda shakllana boshlaydi.


Kasbga oid odoblilikning mavjudligi inson mehnat faoliyatining o'ziga chos xususiyatlari bilan bog'liqdir (mehnatning xususiyatlari va mezonlari, korporativ yo'nalish va hokazo).

U yoki bu sohaning mutaxassislari tashkilotlarda bir xil vazifadagi majburiyatlarni amalga oshiradilar. Ushbu faoliyat natijasida ular tomonidan ma'lum bir odob ahloq qoidalari ishlab chiqiladi. Mazkur qoidalar kasbiy vazifalarni hal etishda foydali yordam bera oladi, ularning bilimi esa mutaxassislarning shaxsiy jihatlarini takomillashtirishga imkon yaratadi.

Kasbiy qadriyatlar -kasbiy tahlim va amaliy faoliyat bilan yuzaga keladi hamda umuminsoniy, milli, va shaxsiy qadriyatlar kabi tashkilotlar va guruhlarning qadriyatlarini aks ettiradi.



Kasbiy qadriyatlar



Kasbiy tahlim va amaliy faoliyat bilan yuzaga keladi hamda umuminsoniy, milli, va shaxsiy qadriyatlar kabi tashkilotlar va guruhlarning qadriyatlarini aks ettiradi.

Ular kasbiy uyushmaning eng muhim ehtiyojlaridan biri bo'lmish kasbiy vazifalarni hal qilishda konsolidatsiyaga bo'lgan ehtiyojni

qoniqtiradilar. Ushbu ehtiyojni qondirishda ideallik o'ziga xos o'rini egallaydi.

Ideal — bu faoliyatning eng yuqori cho'qqisini aks ettiruvchi, asosiy baholash mezonining namunasi hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatda quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- Kasbiy xarakteristika oldidagi etik majburiyatning mavjudligi. Masalan, kasbiy manfaatlarni himoya qilish, uning bir butunligi va obro'sini asrash, etika qoidalarini bajarish, o'z kasbiga bo'lgan muxabbat, har bir qilayotgan ishiga vijdonan yondoshish, kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida ijodkorlikni namoyon qilish, simvollik, kasbiy tartib taomillar.

Shaxsni rivojlantirishga qaratilgan etik normalar, mutaxassisning o'z shaxsiy xislatlarini namoyon qilishi hamda o'z o'zini kamolotga etkazishi, kasbiy faoliyatda yuqori malakaga erishish.


Ma'lum bir faoliyat doirasidagi madaniyatning yuqori darajada rivojlanganligi kasbiy mahorat bo'lib hisoblanadi.

Muayyan bir sohada kasbiy qadriyatlar va qimmatliklarning mavjudligi hamda amalda ishlab turishi uning ishchilari uchun uning majburiyatlari bilan bog'liq ko'pgina kasbiy holatlarni anglab etishga va ularni amaldagi qadriyatlar tizimi bilan o'zaro munosabatini aniqlashga imkon beradi.

1.2. Kasbiy etika tushunchasi

Insonlarning mehnat faoliyatidagi o'zaro odob ahloq munosabatlarini kasbiy etika tartibga soladi. Jamiyatning normal darajada ishlab turishi va uning rivojlanishi turli xil moddiy ne'matlar va moddiy qadriyatlarning uzluksiz jarayonda yaratilishi sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Ammo uning mavjudligi va rivojlanishi faqatgina huquqiy hamda iqtisodiy qonunlarga bog'liq emas. Asosiy o'rinni u yoki bu kasbiy faoliyat asosida quriladigan odob ahloq tamoyillari egallaydi.

Kasbiy etika — bu insonning o'z kasbi oldidagi majburiyati aloqadorlini aniqlab buruvchi odob ahloq normalari yig'indisi hisoblanadi.



Kasb bilan bog'liq bo'lgan odob ahloq har doim insonning boshqa shaxslar oldidagi yurish turishi, o'zini tutishi erkinligining cheklanganligi

bilan bog'liqdir. U insonlarni u yoki bu kasbga tegishliligiga qarab birlashtiradi. Kasbga bilan bog'liq odob ahloqga bo'lgan talab faqatgina muayyan bir kasb egalariga tegishli bo'lib, boshqa kasb egalariga dahl qilmaydi. Bundan tashqari, ushbu talablar u yoki bu kasb egalarining o'ziga xos o'zaro munosabati hamda o'zaro aloqasini sababli barchaga ma'lumdir.

Misol uchun:

Yapon ish etikasining umumiy qoidalari: uchrashuvlarga faqatgina tashrif qog'ozi bilan kelish, har doim o'z kompaniyasi va o'z takliflari haqida manbalarga ega bo'lish, kiyinish madaniyatida va tashqi ko'rinishda maxsus qoidalarga rioya qilish.

Kasbiy etika shuningdek, axloqiy o'zini tutish bilan ham bevosita bog'liq, lekin u xar bir kasbning ahloqiy xarakteristikasini ko'rib chiqqan holda juda tor doirani o'zida qamrab oladi. Kasb faqatgina normativ talablarga to'g'ri keluvchi saralash jarayoni kabi o'rin egallaydi.

Kasbiy etikaning doirasiga quyidagilar kiradi:

- Kasbiy majburiyat va uni yanada yaxshi shakllantirishga qaratilgan, shuningdek, xodimning shaxsiy axloqiy sifatlarini o'rnatish;
- Kasb bilan bog'liq tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.

Kasbiy etika mehnat jamoalarida mutaxassislarning o'zaro munosabatini o'rganadi, bundan tashqari, kasbiy jamoalarning munosabatini va ushbu kasb bilan bog'liq odob ahloqlilikning xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

Kasbiy etika jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro ahloqiy munosabatlarni o'rnatuvchi ahloq kodekslari orqali ifodalanadi.

Shunday qilib, kasbiy etika - bu:

1) O'zining amalga oshiruvchi kasbiy faoliyati jihatidan maqbul deb hisoblanuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro ahloqiy munosabatlarni aks ettiruvchi ahloq kodekslarixisoblanadi;

2) U yoki bu kasbning ijtimoiy va madaniy gumanitar nuqtai nazaridan mazkur kodekslarni tasdiqlash usullari xisoblanadi.

1.3.Kasbiy etika turlari

Kasbiy etika turlari — bu kasbiy faoliyatning shunday o'ziga xos turlariki, ular insonning hayotida va jamiyatdagi faoliyatida u yoki bu usullarda bevosita insonga yo'naltirilgandir.

Etika odob ahloq normalarining ko'p tomonlamaligini aks ettiradi, kasbiy ahloqiy munosabatlarning turli jihatlarini ochib beradi.

Kasb bilan bog'liq ahloqiy normalar—bu etik ideallar asosida shaxsiy jihatlarni ichki tartibga solish tartibi, namanasi, qoidalarini hisoblanadi.

Kasbiy etikaning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir: shifokorlar etikasi, pedagogik etika, olimning, aktyorning, rassomning, tadbirkorning, jurnalistning, injenerning va hokazo kasblarning etikasi.

Bugungi kunga kelib etika kodekslarining bir qancha turlari mavjud. Ular tadbirkorlik sohasida, savdo sohasida, harbiy soha vakillari uchun ham ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar xodimlari uchun (masalan, muzeylar), muassasalar, xalqaro kasaba uyushmalari xodilari uchun ham ahloqiy kodekslar mavjud. Ular xalqaro maqomga ega.

Jurnalistning kasbiy etikasi xamkasblar o'rtasidagi kasbiy ahloqiy munosabatlarni, jurnalistlarning institutsional uyushgan jamiyatining ularning yurish turishiga ta'sirini, tashkilotlarning ularga aralashishi chegarasini va buning sababi bilan bog'liq savollarni o'rganadi.

Iqtisodiy etika -butadbirkorlik faoliyati ishchilarning odob ahloqini aks ettiruvchi normalar majmuini namoyon etadi, tadbirkorning ish uslubiga rivojlangan jamiyatning talablarini ko'rsatadi, tadbirkorlik faoliyati ishtirokchilari o'rtasida munosabat va ijtimoiy yondashuv qanday bo'lishi kerakligini aks ettiradi.

Iqtisodiy etika bozor munosabatlarining shakllanishi, tarixiy an'analar, ommaviy anglab etishning keng namoyon bo'lishi, insonning mehnatga bo'lgan ahloqiy munosabati mezon natijasida yuzaga keladi.

Iqtisodiy etikaning bir turi ish muomalasi bo'lib hisoblanadi.

Ish etiketi — bu ishbilarmon kishining boshqa insonlar bilan muomala qilish jarayonidagi o'zaro yurish turishi, harakatlari qoidasi hisoblanadi.

U muayyan bir mamlakatning tarixiy shart sharoitlari hamda urf odat, an'analari bilan bevosita bog'liqdir.

Ish muomalasi etiketi tadbirkorlikning ko'rinishini, korxonani, shaxsni kashf etish, uni paydo qilish uchun yordam beradi. Yuqori o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan tashkilot, muassasa, korxonalar o'zlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatlarida yuqori iqtisodiy natijalarni qo'lga kiritadilar. Ular bilan faoliyat olib borish juda qulay va yaxshi, chunki ish aloqalarini o'rnatish uchun qulay psixologik muhit yaratib qo'yilgan bo'ladi.

Ijtimoiy soha vakillarining etika kodeksi, Ijtimoiy xizmat vakillarining mintaqalararo assotsiatsiyasi tomonidan 1994 - yilda qabul

qilingan bo'lib, ijtimoiy xizmatda odob ahloq normalarini o'zida aks ettiradi. Ijtimoiy xizmat ishchilarining ahloqiy etik normalarining o'ziga xos o'rni shundan iboratki, ishchilarning kasbiy faoliyati ma'lum bir shaxslarga, oilalarga hamda ijtimoiy guruhlariga yordam ko'rsatish bo'lib hisoblanadi.

Shu bilan birga etika kodeksi ijtimoiy xizmat ishchisida shakllanishi lozim bo'lgan quyida keltirilgan o'ziga xos sifatlarni ajratib ko'rsatadi: bular sabr bardoshlilik, muloyimlik, tartiblilik, emotsional turg'unlik, o'z o'zini baholashning shaxsiy o'xshashlilik. Ijtimoiy sohadagi ishchi o'zining shaxsiy obro'siga bo'lgan xis tuyg'uga, kasbga bo'lgan majburiyatga, vijdonga ega bo'lishi va uni rivojlantirib borishi, boshqa shaxslarning xis tuyg'ularini hurmat qilishi va samimiy bo'lishi lozim. Shuningdek, pedagogik malakaga ham ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ijtimoiy sohadagi ishchilarning ijtimoiy ish bo'yicha etika normalariga amal qilishlari ularni faoliyatlari davomida salbiy oqibatlardan himoya qiladi.

Ijtimoiy soha vakilining etika printsipligiga mijoz oldidagi javobgarlik, hamkasblar hamda kasbi oldidagi, shuningdek, jamiyat oldidagi mas'uliyat, javobgarlik, majburiyatlar kiradi.

Hozirgi kunga kelib kasbiy etikaning turlari alohida tashkilotlar standartlari bilan tanishtirsa bo'ladigan etika kodekslari (korporativ kodekslar) hamda butun bir soha ichidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar (kasbiy kodekslar) bilan shakllantiriladi.

1.4.Kasbiy etika kodekslari

Kasbiy ahloqning etika kodeksi jamiyat oldida alohida majburiyatga ega bo'lgan kasblar uchun shziga xos o'rin egallaydi: davlat xizmatchilarida, sudyalarda, shifokorlarda, buxgalterlarda va auditorlarda.

Turli yo'nalishdagi mutaxassislarning rivojlanib borayotgan kasbiy mahoratlari bilan borgan sari odobva ahloq to'qnashuvlari duch keladigan muammolar ko'payib bormoqda. Ularni faqatgina kasbiy bilimlarga tayanib hal qilib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham etika kodekslarini ishlab chiquvchilarning asosiy vazifasi bu ahloqiy etik muammolarni va bahsli holatlarni hal etishga qaratilgan korporativ etika normalari va printsiplarini kasbiy doiraga jalb qilish va shakllantirish, kasbiy faoliyatning turli doiralarida suiiste'mollikka yo'l qo'yishni oldini olish bo'lib hisoblanadi.


Misol uchun:

Kasbiy etika kodeksi hozirki kunning kashfiyoti emas. Xususan, 300 yildan ko‘proq yil avval ishlab chiqilgan va shu kungacha samuray Kodeksi (“Busido Sosinyu”) etib kelgan (deyarli o‘zgarmagan holatda). Mazkur Kodeksprofessional jangchining yurish turishini oddiy hayotda bo‘lgani kabi jangda ham tartibga solib qo‘yuvchi etik qoidalarni aks ettirgan.

Ushbu kodekslar o‘z qoidalari bilan auditorlar, shifokorlar, jurnalistlar, huquqshunoslar va jamiyat uchun muhim bo‘lgan boshqa kasb egalarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini to‘ldiradilar.

Barcha ushbu kodekslar u yoki bu kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi ahloqiy etik normalardan iboratdir. Bundan tashqari, ularni quyidagicha nomlar bilan ham atashadi: “Kasbiy etika Kodeksi”, “Etika kodeksi”, “Sha’n kodeksi”, “Etik normalar deklaratsiyasi”, “Kasbiy printsiplar xartiyasi”, “ Deontologik kodeks” va boshqalar.

1.5.Etika Kodekslarini qabul qilinishing sabablari



Kasbiy faoliyatda juda ko‘plab shunday nozik farqlar mavjudki, ularni hatto muayyan bir mutaxassislarning huquq va majburiyatlarini belgilab qo‘ygan amaldagi qonunchilik ham bo‘ysundira olmaydi.

Shu munosabat bilan kasbiy ahloqni tartibga solishda qo‘shimcha choralarga ehtiyoj tug‘iladi. Ma’lum bo‘lishicha, korporativ qoidalarni ishlab chiquvchi muayyan bir kasb egalari boshqalardan ko‘ra ko‘proq o‘z muammolarini hal eta oladilar.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyat haqidagi ko‘pgina qonunchilik hujjatlarida korpopativ etika qoidalari rioya etilishi lozimligi haqidagi bandlar o‘z aksini topgan.

Huquqiy tartibga solish (butun bir jamiyat va alohida bir shaxsning hayotiga davlat aralashuvining bir ko‘rinishi sifatida) an’anaviy tarzda diniy va ahloqiy normalar, urf odatlar va an’analar orqali bo‘ysinuvchi jamiyatning ahloqiy etik doirasiga aktiv aralashishga yo‘l qo‘ymaydigan muayyan cheklovlarga ega.Ular bilan bog‘liq holda, qabul qilingan etika

kodekslarini fuqarolik jamiyati ichidagi jamoaviy munosabatlarni jamiyatning o'z kuchi orqali tartibga solishning natijasi sifatida qarash kerak.

Kasbiy etika kodekslarining mavjudligi— bu davlatning yordamisiz ham mustaqil ravishda o'z ahzolarining ahloqini tartibga soluvchi jamiyatning ahloqiy etukligidan darak beradi.

Ba'zi kasb vakillari (masalan, shifkorlar, sudyalari) o'zining huquqiy holatidan kelib chiqib shaxsiy qaror qabul qilishda keng imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Ularning harakatlarining erkinligi (qaysiki nafaqat ijtimoiy foydali bo'ladi, balki jamoaviy xavfli bo'lishi mumkin) qisman ma'lum bir huquqiy qoidalar bilan, shuningdek, shaxsiy vijdoni bilan chegaralangan.

Shu munosabat bilan, etika kodekslarining vazifasi shundan iboratki, ular kasbiy uyushmalar a'zolarining yaxshi va yomon haqidagi qarama - qarshi qarashlarini umumiy bir xillikka keltiradilar.

Bunga u yoki bu kasbiy faoliyat asos bo'la oladigan, ijro etilishi majburiy bo'lgan korporativ printsip va normalarga havola qilgan holda ahloqiy ideallikni shakllantirish orqali erishish mumkin.

Jamiyat o'z a'zolarini rasmiy muayyan korporativ ahloqqa rioya etishga majbur qilishi lozim, chunki hamma advokatlar, shifokorlar ham, sudyalari ham, jurnalistlar ham ko'ngilli ravishda, o'z xohishlari bilan o'z faoliyatlarida bu qoidalarni qo'llamaydilar.

Ko'pgina kasblar ushbu kasb egalariga jamiyat oldida yuqori majburiyat yuklaydilar. Shu munosabat bilan, etika kodeksi turli xil kasbiy suiiste'molliklarning va buzilishlarning oldini olish uchun qo'shimcha vosita bo'lib hisoblanadi.

Misol uchun:

Ruxshunosning kasbiy etika kodeksining 4 moddasi shifokor qoidasiga ko'ra suiiste'mollik deb hisoblanuvchi quyidagi xarakatlarni bajarishni man etadi:

➤ O'z bilimlarini meditsina manfaatlariga qaramay yoki haqiqatni buzib ko'rsatish maqsadida ishlatish;

➤ Etarli xulosalarsiz shaxsga psixiatrik choralarni qo'llash;

➤ Psixiatrik yordamga muhtoj shaxslarga yordam berishdan bosh tortish;

➤ Mijozga o'zining falsafiy, siyosiy, diniy qarashlarini uqtirish;


➤ Mijoz bilan mulkiy ko'rinishdagi kelishuvlarni amalga oshirish, uning mehnatidan o'z manfaati yo'lida foydalanish;

➤ Mijoz bilan yaqin aloqada bo'lish;

- Mijozning o‘z o‘zini o‘ldirishiga imkon yaratish;
- Mijozni jazolash maqsadida tibbiyot vositalaridan foydalanish.

Shunday qilib, etika kodekslarini qabul qilinishi sabablari quyidagilar

(1. rasm):



1-Rasm. Etika kodekslarini qabul qilinishi sabablari

Kasbiy ahloqni qo‘shimcha tartibga solishga bo‘lgan ehtiyoj;

➤ fuqarolik jamiyati ichidagi jamoaviy munosabatlarni shu jamiyatning o‘z kuchi bilan tartibga solish.

➤ Ba’zi kasb egalarining xulosa chiqarishda xaddan tashqari keng imkoniyatga egaligi.

1.6. Kasbiy etika kodeksining mohiyati

Ma’lum bir kasbiy etika kodeksini tasvirlashda shuni aytib o‘tish kerakki, u kodifikatsiyalashgan normativ hujjat bo‘lib, kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi ahloqiy etik qoidalarni ijro etish uchun tizimlashtirilgan ko‘rinishdagi majburiy xarakterga ega bo‘lib, ma’lum bir kasb egalari tomonidan qabul qilinadi.

Etika kodeksi muayyan rasmiy ahloqiy qoidalarning majmui bo‘lib, ular kasbiy uyushma vakillarining bajarmasa ham bo‘ladigan ixtiyorlari majmui emas, balki ularni buzish ma’lum bir huquqiy oqibatlarga olib keladi.

O‘zining huquqiy ahamiyatiga ko‘ra etika kodekslari normativ hisoblanadi, lekin huquqiy akt emas, chunki davlat qonunchilik organlari tomonidan emas, balki kasbiy uyushma tashkilotlari tomonidan qabul qilinadi. Lekin ularning ijtimoiy mazmuni yuqori.

O‘xshash qoidalar auditorlar etika kodeksida ham mavjud.

Xususan, belgilanishicha, auditor o‘z faoliyati davomida quyidagi printsiplarga amal qilishi lozimdir :bularrostgo‘ylik, mustaqillik, ob’ektivlik, kompetentlik, maxfiylikdir. Etiborlisi shuki, ushbu printsiplar xakida Kodeksning alohida moddalarida auditorlik ishi bilan bog‘lagan holda batafsil yoritiladi.

Shuningdek, kasbiy etika kodekslari intizomiy javobgarlikni ham tartibga soladi. Intizomiy javobgarlik mutaxassisga yuklatilgan majburiyatning bajarilmaganligi yoki o'rnatilgan cheklovlarni buzganlik, etiki normalarini buzganlikni aks ettiradi. Jazolar turli xil ko'inishda bo'lishi mumkin va ogohlantirishdan tortib kasbiy uyushmadan xaydashgacha bo'lgan ko'rinishga ega bo'ladi.

G'arbiy davlatlarda, O'zbekiston Respublikasidan farqli o'laroq, qattiqroqdir. Chet el davlatlarida kasbiy uyushmalar uchun ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziya beradi. Unga ko'ra, agarda litsenziya olib qo'yilsa bu ishchini shu faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qiladi. O'xshash oqibatlar Rossiyaning ba'zi etika kodekslarida namoyon bo'ladi. Sudya etika qoidasiga amal qilmalik sudya vakolatini muddatidan oldin tugatadi, advokatning kasbiy etika kodeksiga ko'ra esa, ogohlantirish bilan birga advokat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

Etika kodekslarining tuzilishi, qoida tariqasida, turli xildir. Ularning ba'zilar faqatgina ahloqiy qoidalarning qisqa ro'yxatini aks ettiradi xolos. Lekin ko'pgina hollarda kasbiy etika kodekslari yaxshi tuzilgan aktlar hisoblanadi. Ularda preambula, bo'limlar, mavzu bo'yicha bo'lingan majburiyatlar va cheklovlar, shuningdek, protsedura xarakteriga ega qoidalar mavjud.

Misol uchun: Advokat kasbiy etika kodeksida Preambuladan tashqari ikki bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim advokatning kasbiy ahloqining printsip va normalarini aks ettiradi. Ikkinchi bo'lim intizomiy choralar protsedurasini tartibga soladi.

Etika kodekslarining normalari nafaqat amaldagi milliy qonunchilik, jamiyatda qaror topgan va kasbiy an'analarga mos keladigan ahloqiy printsiplardan, balki xalqaro huquqiy aktlardan ham tarkib topgan.

Shu asnoda, Rossiya advokatlari kasbiy etika kodeksi Evropa Hamjamiyati davlatlari advokatlari uchun qoidalar umumiy kodeksining normalari asosida tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi auditorlari etika kodeksi esa Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining tavsiyasiga binoan qabul qilingan.

Jurnalistlarning etika kodeksi Xalqaro jurnalistlar federatsiyasi tomonidan qabul qilingan jurnalistlar ahloqiy printsiplari Deklaratsiyasiga asoslanadi.

Kasbiy etika Kodeksi— bu kodifikatsiyalashgan normativ hujjat bo'lib, kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi ahloqiy etik qoidalarni ijro etish

uchun tizimlashtirilgan ko‘rinishdagi majburiy xarakterga ega bo‘lib, ma’lum bir kasb egalari tomonidan qabul qilinadi.

Kasbiy etika kodekslarining xususiyatlaridan biri shuki, unda kasbiy faoliyat davomida ahloqiy etik nuqtai nazardan ko‘p uchrab turuvchi savollarga aniq javoblar mavjud.

Misol qilib , “Jurnalist razvedka xizmatining axborotchisi bo‘la oladimi?”, “ Shifokor boshqa bir shifokorning pullik davolashini amalga oshira oladimi?”, “Qanday harakatlar auditor uchun rostgo‘ylikka zid bo‘lib hisoblanadi?”, “Qanday qilib sudya ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro alova o‘rnata oladi?”.

Shu bilan birga kodekslar hayotning har qanday holati uchun to‘g‘ri keladigan mukammal normativ akt bo‘lib hisoblanmaydi.

Kodekslarda keltirilishicha, qonunchilik va etika kodekslari tartibga solmaydigan murakkab yoki nizoli vaziyatlarda shaxs o‘z uyushmasining tegishli organiga murojaat qilishi mumkin.

Shunday qilib, etika kodeksi amaldagi qonunchilik bilan bir qatorda kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi muhim normativ hujjat hisoblanadi.

Uni bilish va unga amal qilish — bu nafaqat kasbiy muvaffaqiyat va martabaning tez ko‘tarilishi uchun imkon beradi, balki jamiyatda mavjudijtimoiy kasbning barcha vakillari uchun qattiq talabi ham xisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Etika, odob-ahloq va kasbiy qadriyatlar nima ?
2. Kasbiy etika tushunchasi tarif bering?
3. Kasbiy etika turlari nimalardan iborat?
4. Kasbiy etika kodekslari tushunchasi?
5. Etika Kodekslarini qabul qilinishining sabablari?
6. Kasbiy etika kodeksining mohiyati nimalardan iborat?

2-BOB. ZAMONAVIY BUXGALTER VA AUDITORNING KASBIY XUSUSIYATLARI

- 2.1. Buxgalteriya zamonaviy kasb**
- 2.2. Buxgalterning kasbiy mahorati va qobiliyatlari**
- 2.3. Professional buxgalterlar va auditorlar etikasi**
- 2.4. Buxgalterlarning Professional tashkiloti**
- 2.5. Professional buxgalter maqomi**
- 2.6. Professional auditorlik tashkilotlari**
- 2.7. Buxgalteriya hisobi kasblari bo'yicha xalqaro ta'lim standartlari**

2.1. Buxgalteriya zamonaviy kasb

Zamonaviy dunyoda buxgalterlik kasbi obro'li va nisbatan yaxshi to'lanadi.

Professional buxgalterlar iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida — buxgalteriya hisobi va auditorlik firmalarida, yirik, o'rta va kichik korxonalarda ishlaydi, tijorat, sanoat va moliya kompaniyalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat idoralarida xususiy amaliyot bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, ular turli ixtisoslashgan sohalarga tegishli tashkilotlarda ichki yoki mustaqil auditorlar yoki maslahatchilar sifatida ishlaydilar.

Buxgalterlik kasbi foydalanuvchilarga qaror qabul qilish uchun foydali ma'lumotlar berish bilan bog'liq.

Shu munosabat bilan, Professional buxgalterlar o'z vazifalaridan kelib chiqadigan juda keng talablarga bo'ysunadi.

Ular buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot, boshqaruv, soliq, axborot tizimlari, korporativ Moliya va intellektual resurslar bilan shug'ullanadi.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari tashkilot biznesining muhim jihati hisoblanadi. Uning foydalanuvchilari tashkilot egalari, tashkilot rahbari, tashkilot boshqaruvchilari va davlatdir. Tashkilotdagi foydalanuvchilarning turli toifalari uchun moliyaviy, soliq va boshqaruv hisobida axborot bazasi shakllantiriladi.

Egalari va investorlar moliyaviy ma'lumotlarni kerak.

Tashkilot menejeri va menejerlari boshqaruv hisobi ma'lumotlariga muhtoj. Bu axborotni tayyorlash ichki foydalanuvchilar manfaatlariga asoslanadi va bu axborotdan optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foydalaniladi.

Menejer va menejerlar buxgalteriya hisobi va Moliya sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lmashligi mumkin. Buxgalter-tahlilchi axborotni samimiy formatda tayyorlaydi. Moliyaviy hisobotlardagi raqamlarni izohlab, izohlab berishlari mumkin.

Buxgalter (auditor) ning asosiy maqsadi maksimal darajadagi samaradorlikka erishish va jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida professionallikning eng yuqori standartlariga muvofiq ish olib borishdir.

Korxonalar, muassasa va boshqa tashkilotlarda buxgalteriya xodimlari sifatida ishlaydigan buxgalterlar uchun maxsus axloq kodeksiga ehtiyoj buxgalteriya hisobi tomonidan bajariladigan vazifalarning o'ziga xos mazmuni va buxgalteriya hisobining jamoat maqsadidan kelib chiqadi.

Buxgalteriya hisobi tashkilot, davlat, hamda turli jismoniy va yuridik shaxslarning egalari tegishli bo'lgan ko'plab inventarizatsiya moddalarini va mablag'larining mavjudligi, olinishi va sarflanishi bilan bevosita bog'liq. Huquq normalari juda muhim rol o'ynaydi.

Tashkilotning buxgalteriya bo'limi yagona tizim hisob-kitobi va nazorat xizmati sifatida tashkilot xodimlari va kompaniyaning hamkorlari uchun mukammal bo'lishi kerak. Bu buxgalteriya xodimlarining sharafi va kasbiy burchidir.

Buxgalterlik kasbi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, davlat manfaati yo'lida harakat qilish majburiyatini tan olish va qabul qilishni nazarda tutadi.

Buxgalterning Professional faoliyati nafaqat ish beruvchi yoki individual mijozning ehtiyojlarini qondirish uchun emas, balki buxgalteriya hisobining Professional qoidalari va standartlariga jamiyat manfaatlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday holda kompaniya buxgalterning ishi mahsuli bo'lgan axborotdan manfaatdor foydalanuvchilar bilan aniqlanadi.

Mazkur korxonalar faoliyatida davlat manfaatlari darajasini aks ettiruvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qo'shimcha shartlar qo'yiladi. Shu munosabat bilan axborotdan foydalanuvchilar sifatida ushbu sub'ektlar iqtisodiy qarorlar qabul qilishda buxgalterlarning ob'ektivligi, mustaqilligi va yaxlitligiga tayanadi va ularning birgalikdagi manfaatlari rioya qilish buxgalter va auditor uchun ma'lum bir Professional xatti-harakatni belgilaydi.

Buxgalterlik kasbining o'ziga xos xususiyati uning mijozlar, kreditorlar, hukumat, ish beruvchilar, xodimlar, investorlar va butun biznes buxgalterlik jamiyati oldidagi mas'uliyatini tan olish zarurligidir.

Ular buxgalterlarning kasbiy kompetentligi, ob'ektivligi va yaxlitligiga hamda ularning qonunga rioya qilish mas'uliyatiga tayanadi.

Investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tavakkal moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash orqali, Professional buxgalterlar:

* xususiy va davlat sektorlarida resurslarni samarali taqsimlash va boshqarishni ta'minlash. Tashkilotda va uchinchi shaxs jismoniy va yuridik shaxslarda iqtisodiy hayot haqiqatlarini sodir etishda qonunga rioya etilishini nazorat qiladilar;

* moliya va kapital bozorlarining ishlashini va ular orqali tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ta'minlash . Investorlar, kreditorlar, ish beruvchilar, hukumat va umuman jamoatchilik mamlakat iqtisodiyotining holatiga, moliyaviy holatiga va yuridik shaxslarning ushbu tashkilot bilan aloqada bo'lgan holatiga ta'sir qiluvchi moliyaviy hisobotlarga asoslangan qarorlar qabul qiladi;

* alohida kompaniyalar o'sishini rag'batlantirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlash, va hukumat ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga javob yordam. Ishonchli hisob ma'lumotlarisiz samarali moliyaviy boshqaruv, soliqqa tortish va asosiy boshqaruv funktsiyalari mumkin emas. Ular kredit va qarz olish va qarz kapitalini jalb qilishning zarur shartidir;

* mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishiga va pirovard natijada jamiyat farovonligiga hissa qo'shadi.

Shunday qilib, Professional buxgalterlar ishining yuqori sifati turmush darajasini ko'tarish va jamiyat boyligini oshirishga yordam beradi.

Jamoatchilik manfaatini ko'zlab ish yuritganda Professional buxgalter Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi talablariga rioya qilishi va rioya qilishi shart.

Buxgalter o'z vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha yuzaga keladigan barcha vaziyatlar va real dalillarni xolisona ko'rib chiqishi shart. U o'z faoliyati natijalariga tashqaridan shaxsiy qarama-qarshilik, xusumat yoki tazyiq o'tkazilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Mustaqillik halol va xolisona harakat qilish uchun hisobchi qobiliyatini nazarda tutadi. Har qanday sharoitda tashkilotning ishlar haqiqiy holatini aks ettirish uchun buxgalteriya yozuvlarni saqlab qolish va faqat buxgalteriya qonun asosida moliyaviy natijalar ishlab chiqarish lozim.

Shunday qilib, jamoatchilik manfaatini ko'zlab harakat qiluvchi, Professional buxgalter (auditor) kerak:

* kasbingizning tamoyillari va maqsadlariga sodiq bo'lishi;

* professional buxgalterlar va auditorlar uchun axloq kodekslariga rioya qilishi kerak.

2.2. Buxgalterning kasbiy mahorati va qobiliyatlari

"Kasb-hunar ta'limining maqsadi kasbiy faoliyati davomida kasb va jamiyatga ijobiy hissa qo'sha oladigan malakali Professional buxgalter tayyorlash uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar, kasbiy qadriyatlar va axloqni birlashtirishga zamin yaratishdir."

Kasbiy bilim-bu buxgalteriya hisobi va unga tegishli fanlarning mazmunini tashkil etuvchi ma'lumotlar majmui bo'lib, u Professional buxgalteriya bilimining asosini tashkil etadi.

Kasbiy ko'nikmalar - kasbiy bilimlar, kasbiy qadriyatlar va axloqni o'z ishlarida tegishli va samarali qo'llash uchun Professional buxgalter egallashi kerak bo'lgan turli xil ko'nikmalardir.

Professional buxgalterning qobiliyatlari juda keng: intellektual; maxsus va funktsional; shaxsiy; shaxslararo va kommunikativ; tashkiliy va boshqaruv. Intellektual ko'nikmalar muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va murakkab tashkiliy vaziyatlarda to'g'ri baholashdan foydalanish imkonini beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy, boshqaruv, soliq hisobi va tegishli hisobot turlarini shakllantirish sohasida asosiy nazariy bilimlar va amaliy kasbiy ko'nikmalarni egallash;

- tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini har tomonlama tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ular hal qilinishi kerak bo'lgan tartibni baholash qobiliyati;

- moliyaviy hisobotlarning auditini o'tkazish qobiliyati;

- xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini etarli darajada bilish va ularni amalda qo'llay olish qobiliyatini;

ko'p tomonlama yoki murakkab muammolarni hal qilish uchun turli fanlardan kerakli ma'lumotlarni topish qobiliyati; muqobil echimlar imkoniyatini baholash va qaror qabul qilishda Professional hukmning rolini tushunish;

tsivilizatsiyani rivojlantirishda kasbiy qadriyatlar va axloqning rolini asoslash, O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini isloh qilish shartlari va zamonaviy ijtimoiy va axloqiy muammolar bilan bog'liq.

Maxsus va funktsional ko'nikmalar umumiy va maxsus buxgalteriya ko'nikmalarini o'z ichiga oladi:

buxgalteriya hisobining predmeti bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy hodisalar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash, baholash va taqdim etish;

barcha turdagi aktivlarni, uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarni, kapitalning turli qismlarini, tashkilotlarning daromad va xarajatlarini ro'yxatga olish, baholash va hisobga olish bilan bog'liq joriy qoidalarni tushunish, qo'llash va tanqidiy baholash va ularning faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash;

ro'yxatdan o'tish, jarayon va buxgalteriya ma'lumotlarini umumlashtirish;

tashkilotlarning moliyaviy (konsolidatsiyalashgan) hisobotlarini tayyorlash;

aniq korxonalar va tashkilotlar uchun eng yaxshi boshqaruv hisobi modelini tanlash;

tovar va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) narxini hisoblash uchun turli usullarini baholash;

sudlarda kreditorlar, investorlar, soliq va boshqa organlar bilan munosabatlarda tashkilotning moliyaviy manfaatlarini ifodalaydi;

tashkiliy jihatlari, bozor omillari va boshqa ijtimoiy, texnologik, huquqiy, axloqiy, iqtisodiy, tartibga soluvchi va siyosiy omillar buxgalteriya usullarini tanlash va qo'llashga qanday ta'sir qilishini tanqidiy tahlil qiling;

muammolarni tahlil qilish va muammolarni shakllantirish va echimlarni topish uchun baholash uchun tegishli asosni aniqlash;

ma'lumotlarni og'zaki va yozma taqdim etish ko'nikmalari yordamida olingan natijalarni taqdim etish.

Shaxsiy ko'nikmalar buxgalterning munosabati va xatti-harakati bilan bog'liq. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish mustaqil ta'lim va shaxsiy takomillashtirish bilan mumkin bo'ladi.

Turli maxsus tadqiqotlarga ko'ra, buxgalterning ishi eng qiyin hisoblanadi. Bu kasbning o'ziga xos sohalariga bog'liq:

1) katta axborot oqimlari - ishni tartibga soluvchi va ba'zan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ko'plab hujjatlar, tuzatishlar, sharhlar, tushuntirishlar;

2) qattiq muddatlar juda jiddiy stres omilidir;

3) nizolarga olib keluvchi talablar;

4) katta mas'uliyat;

5) doimiy stres.

Bunday sharoitda buxgalter o'zining aniq vazifasiga yagona to'g'ri javobni tanlashi va javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak-kasbiy, axloqiy va ba'zan moddiy.

Bu vaziyatni oldini olish uchun, siz Professional bilim bilan birga buxgalter ega bo'lishi kerak bo'lgan shaxsiy ko'nikmalarini bilishingiz kerak. Ular orasida:

- * o'z-o'zini nazorat qilish;
- * tashabbuskorlik, hokimiyat, o'z-o'zini o'rganish qobiliyati;
- * cheklangan muhitda ustuvorlik qilish va qiyin muhitda tashkil etish qobiliyati;
- * o'zgarishlarni bashorat qilish va moslashtirish qobiliyati;
- * qaror qabul qilishda kasbiy qadriyatlar va axloqni hisobga olish qobiliyati;
- * Professional shubha.

internatsional va aloqa qobiliyatlari Professional buxgalterning boshqa odamlar bilan munosabatlarda ishlashiga tashkilotning umumiy maqsadiga erishish, axborotni olish va uzatish, asosli usullarni tanlash va samarali qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu ko'nikmalar mavjudligi qobiliyatini belgilaydi:

o'zaro maslahatlashuvda boshqa odamlar bilan ishlash, murosaga kelish va nizolarni hal qilish;

buxgalteriya kasbining Professional va axloqiy doirasida ishlash qobiliyatini namoyish etish, shuningdek jamoaviy ish orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;

buxgalteriya tashkilotning tuzilishiga qanday mos kelishini va tashqi muhitga qanday bog'liqligini tushuning;

muammolarni hal qilish uchun maqbul yo'llarini topish va Professional vaziyatlarda kelishuvga kelish imkoniga ega;

turli madaniyatdagi odamlar bilan samarali ishlash;

rasmiy, norasmiy, yozma va og'zaki muloqotda fikrlarni samarali ifodalash, muhokama qilish, muloqot qilish va himoya qilish;

Interaktiv tinglash va samarali o'qish.

Tashkiliy-boshqaruv ko'nikmalariga quyidagilar kiradi:

strategik rejalashtirish, loyihalarni boshqarish, resurslarni boshqarish;

boshqalarga vazifalarni tashkil etish va belgilash, odamlarni rag'batlantirish va rivojlantirish qobiliyatini.

joriy bo'lmagan aktivlar, ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot va tovarlar ishlab chiqarish xarajatlari, naqd pul, hisob-kitoblar, kapital, moliyaviy natijalarni hisobga olish uchun funktsiyalarni taqsimlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar;

ichki va tashqi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy, soliq, boshqaruv va boshqa hisobot turlarini tayyorlashni tashkil etish usullari va usullarini;

moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobini tashkil qilish texnologiyalari; buxgalteriya hisobi jarayonlarini tashkil etish sohasidagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal etish uchun etarli axborot bazasini shakllantirish, ularni hal etish usullari va usullarini aniqlash bo'yicha ko'nikmalar;

xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun optimal bo'lgan hisob siyosatini ishlab chiqish metodlarini bilish;

□ Professional baholash.

Ko'nikmalar-buxgalterning o'z vakolatlarini isbotlash uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar to'plamining bir qismidir (2.2-rasm).

Qobiliyatlar - bu insonning o'z vazifalarini malakali bajarishga imkon beruvchi xususiyatlaridir.

Qobiliyatlar insonning rasmiy vazifalarni malakali bajarishi uchun ishonchli dalildir. Qobiliyatlarning mavjudligi mutaxassisning ish joyida malakali ishlay olishini ko'rsatadi.

Kompetentlik-bu haqiqiy ish muhitini hisobga olgan holda ma'lum bir standart bo'yicha Professional rolni bajarish qobiliyatidir.

Vakolat bir kishi ular aslida belgilangan standartlarga ishlashi mumkin yoki yo'qligini aniqlash uchun amalga oshiradi harakatlarni o'z ichiga oladi. Shaxs o'z qobiliyatidan kelib chiqqan holda belgilangan me'yorlarga muvofiq vazifalarni bajarsa, kompetentlikka erishilgan hisoblanadi (ya'ni, shaxs vakolatli bo'ladi).

Shunday qilib, qobiliyatlar bilim, ko'nikma, kasbiy qadriyatlar, etika va munosabatlardir.

Qobiliyat-atrof-muhitga qarab farq qilishi mumkin bo'lgan salohiyat ko'rsatkichi.

2.3. Professional buxgalterlar va auditorlar etikasi

Buxgalteriya etikasi-buxgalteriya xodimlarining xulq-atvor normalari.

Amerika Qo'shma Shtatlarida birinchi marta Professional buxgalteriya etikasi qoidalari ishlab chiqildi. 1987 yilda Amerika buxgalterlar uyushmasi buxgalterning axloq kodeksini qabul qildi va u vaqti-vaqti bilan yangilanadi.

Amerika buxgalteriya uyushmasi(IFAC) buxgalteriya professor-o'qituvchilar uyushmasi hisoblanadi, amaliyot buxgalterlar, asosiy

maqsadi buxgalteriya nazariyasini rivojlantirishdan, buxgalteriya sohasida tadqiqotlarnimoliyalashtirish tashabbusi, buxgalteriya ta'lim va buxgalteriya ta'lim yaxshilashiborat.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha kengash (IASB)buxgalteriya standartlarini ishlab chiqishda juda katta rol o'ynaydi, nazariyani ishlab chiqish va muhokama qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar va mulohazalar bo'yicha memorandumlar va moliyaviy buxgalteriya standartlari Kengashlari (IASB)tomonidan yuborilgan loyiha standartlari.

Buxgalteriya axloq kodeksining asosiy qoidalari quyidagilar qabul qilingan:

1) buxgalter, lavozimni egallashdan oldin, diqqat bilan (avvalgi buxgalter ishini o'rganish) kerak;

2) agar avvalgi buxgalterendi ishlamas, yozma so'rov bilan murojaat qilishingiz kerak. Kasbiy burch sizni ushbu so'rovga to'liq javob berishga majbur qiladi;

3) agar ish beruvchi amaldagi qonunchilikni buzgan yoki buzishi mumkin bo'lgan ishlarni dastlabki ko'rib chiqishdan kelib chiqqan bo'lsa, buxgalter taklifni (ishni) rad etishi kerak);

4) buxgalter ma'muriyatdan nima qilayotganini bilish va tushunishni talab qilmasligi kerak;

5) buxgalter o'zini rag'batlantirishni talab qila olmaydi;

6) ish beruvchining foydasi bosh buxgalter uchun ulushni o'z ichiga olmasligi mumkin, ya'ni buxgalter o'zi echib olgan moliyaviy natijalar uchun bonus yoki qo'shimcha to'lovni olmasligi mumkin;

7) buxgalter ish beruvchiga o'z jinoyatining izlarini qanday sodir etish va yashirishni maslahat bermasligi kerak;

8) ish beruvchi va buxgalter moliyaviy hisobotlarni noto'g'ri talqin qilish uchun birgalikda va uzil-kesil javobgardirlar;

9) buxgalter muntazam ravishda o'z kasbiy malakasini oshirishi kerak.

Bugungi kunda buxgalterlar uchun xalqaro axloq kodeksi mavjud. Xalqaro buxgalterlar Federatsiyasi (IFAC)Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi (IFAC) a'zolari bo'lgan Professional buxgalterlar uchun axloq qoidalari majmui hisoblanadi. Bu birinchi (IFAC) axloqiy qo'mitasi tomonidan 1996 yil iyul oyida chop etilgan.

Bugungi kunga kelib (IFAC) axloq kodeksi milliy axloq kodekslari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi va uch qismdan iborat:

* A-qism, "Kodeksning umumiy qo'llanilishi", Professional buxgalterlar uchun Professionaletikaning asosiy tamoyillarini ta'riflaydi va ushbu tamoyillarni qo'llash uchun kontseptual asosni taqdim etadi. Kontseptual asos asosiy axloqiy tamoyillarni qo'llash metodologiyasini aks ettiradi;

* B-qism "Professional davlat buxgalterlari" davlat amaliyoti bilan shug'ullanuvchi Professional buxgalterlar tomonidan foydalanishga mo'ljallangan standartlarni belgilaydi;

* V "biznesda Professional buxgalterlar" s-qismida band bo'lgan Professional buxgalterlar tomonidan foydalanishga mo'ljallangan standartlar belgilangan.

B va C qismlari kontseptual asos aniq vaziyatlarda qo'llanilishi kerak qanday misol. Ular o'z ichiga:

* asosiy tamoyillarga rioya etishga tahdidlarni bartaraf etish uchun qabul qilinishi mumkin bo'lgan himoya choralari misollari;

* ehtiyot choralari qo'llanilmaydigan va shunga mos ravishda tahdid tug'diradigan faoliyat yoki munosabatlarga yo'l qo'ymaslik kerak bo'lgan holatlarga misollar.

Kodeksning mavjudligi buxgalteriya maqomini mustahkamlaydi va ish beruvchilarning o'z ishiga bo'lgan talabini oshiradi.

O'zbekistonda auditorlar uchun Professionaletika kodeksi O'zbekiston auditorlar palatasining 2005 yil 25 iyundagi 3-sonli qarori va O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasi Kengashining 2005 yil 26 avgustdagi 9-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu kodeks xalqaro buxgalterlar Federatsiyasi axloq kodeksiga asoslangan bo'lib, Respublika qonunchiligi talablarini hisobga olgan holda.

Auditorning kasbiy etikasi Professional buxgalter etikasi bilan birgalikda ko'rib chiqiladi, lekin u ayrim xususiyatlarga ega.

Ma'lumotlarni ochish o'rinli bo'lgan vaziyatlarga quyidagi holatlarni kiritish mumkin:

1) sudda ishni ko'rish jarayonida hujjatlarni tayyorlash va dalillarni boshqa shaklda taqdim etish;

2) Davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunchilik buzilgan holatlarda ma'lum bo'lgan faktlarni ochish.

Agar qonun bunga ruxsat etmagan bo'lsa, professional majburiyat yoki ma'lumotni ochish huquqi amalga oshiriladi:

➤ Assotsiatsiya (Uyushma) a'zosi – tashkilotning ish sifatini tekshirishda;

➤ etakchi professional tashkilot yoki nazorat qiluvchi organ tomonidan rasmiy so'roq berilganda yoki tergovda;

➤ yuridik muhokama qilish jarayonida professional buxgalter tomonidan o'z professional manfaatlarini himoya qilish.

Maxfiy ma'lumotlarni ochish imkoniyati to'g'risida qaror qabul qilinganda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

1) *ma'lumotni ochishga ruxsatnoma borligi*. Mijoz yoki ish beruvchining ma'lumotni ochishga ruxsatnoma mavjudligida tomonlardan birining manfaatlariga ziyon etkazmaydimi, uchinchi tomonni kiritgan holda ularning ham manfaatlari e'tiborga olinadi;

2) *ishga taalluqli bo'lgan barcha faktlarning mavjudligi va aniqlilik darajasi*. Ma'lumot etarli darajada aniq va mantiqiy darajada asoslanganligi baholanadi.

Agar isbotlanmagan faktlar, xulosalar, to'liq bo'lmagan ma'lumotlar yoki asoslanmagan xulosalar mavjud bo'lsa, professional mulohazaga tayangan holda ma'lumotni qanday ochishni aniqlashtirish kerak (agar ochish zarur bo'lsa);

3) *kutilayotgan xabar xususiyati va uning oluvchisi*. Xususan olganda professional buxgalter shunga amin bo'lishi kerakki, xabar jo'natilayotgan tomonlar, bu vaziyatda xabarlarni qabul qilib oladilar va xabarlar asosida harakat qilishga majbur bo'ladilar, professional buxgalter esa xabarlarni jo'natish va ularning oqibatlariga yuridik jihatdan mas'ul bo'ladi. Barcha shunga o'xshash vaziyatlarda professional buxgalter maslahat uchun yuristga murojaat qilishi mumkin;

4) *sir saqlashga bo'lgan munosabatlar bo'yicha qonunchilik talablari*.

Shunday qilib, tashkilotda ma'lumotni ochish uchun etikaga oid standartlarni joriy qilishda infrastruktura (ta'minlovchi) shart-sharoitlar muhimlaridan biri sanaladi.

Shunchaki, masalan, professionalizm biron bir masala haqida to'g'ri ma'lumoga ega bo'lmaslik ma'lumotni ochishda o'ziga sharoit yaratadi.

Ma'lumotlarni ochish ehtimoli mezoni korporativ munosabatlarning xohlagan ishtirokchisi tomonidan oldinda turgan harakatlarni tahlil qilishda albatta e'tiborga olinadi.

Savol tug'iladi – harakatlarning omma oldidagi oshkor bo'lishida qolgan ishtirokchilarning ta'sirlanishi qanday bo'ladi, agar bularning bajarilishi – etikaga xos bo'lmagan harakatlarning bajarilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan to'siq bo'ladi.

Tijorat siriga ega bo'lgan ma'lumotdan foydalangan shaxsning ma'lumotdan foydalanishi qonunga xilof bo'lib va ma'lumotdan foydalangani to'g'risida etarlicha asosi yo'q deb hisoblangan (ya'ni, shu jumladan, bu ma'lumotga kirishi xato yoki tasodif bo'lgan) hollarda u shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

2.5. Professional axloq. Professional axloq – bu shuni bildiradiki, buxgalter o'z kasbining yuksak obro'siga muvofiq ish qilishi va unga zarar keltiradigan mulohaza va qiliqlardan, ba'zi holatlardan o'zini tiyishi kerak.

Professional buxgalter to'g'ri keladigan qonun va normativ aktlarga rioya qilishi kerak, uning obro'-e'tiborini to'kadigan va to'kmoqchi bo'lgan har qanday harakatlardan o'zini chetga olishi, yoki oqilona ish tutishi, hamma narsalardan xabardor bo'lishi, barcha kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishi, kasbining yaxshi obro'siga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy xususiyatlarni baholay olishi kerak.

Bu qoidalarga ko'ra buxgalter quyidagi huquqlarga ega emas:

- hisobga tegishli ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlari va o'z qarindoshlari, do'stlari va tanishlarining manfaatlari yo'lida foydalanish;
- korxonaning boshqa xodimlari bilan taqqoslaganda o'zini afzal bilish va imtiyozlardan foydalanish;
- kassadan qarz yoki vaqtincha foydalanish uchun pul olish;
- tashkilotdan mahsulotlar, tovarlar va xizmat turlarini imtiyozli narxlar va kamaytirilgan narxda sotib olish.

Bular professional buxgalterdan, ma'muriyatni kiritgan holda, boshqa xodimlarning pullaridan foydalanish va sarflashda, tartib-intizomda o'rnatilgan tartibga amal qilish va axloqiy huquq talablariga rioya qilish talab etiladi.

O'z kasbida yuksak obro'ga ega bo'lish, halollik va vijdonlilik buxgalter ishida albatta bajarilishi kerak bo'lgan shartlar hisoblanadi.

Professional buxgalter halol va to'g'ri bo'lishi va quyidagilarni bajarmasligi talab etiladi:

- a) boshqa professional buxgalterlar ishi haqida mensimay gapirib, fikr-mulohaza bildirishi yoki o'z ishini boshqa buxgalterlar ishi bilan asossiz ravishda taqqoslashi;

b) uning kasbiga, halolligi, xolisligiga, kasbi orqali topgan obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyatda ishtirok etishi va natijada bajarib bo'lmaydigan professional xizmat turlarini taqdim etishi.

Buxgalter vijdotsizligi tufayli ishda na faqat o'ziga, balki boshqalarga ham ko'plab muammo tug'diradi, hamkasblarning beparvoligi yoki e'tiborsizligi o'zing tomoningdan yo'l qo'yilgan xatolarga yoki hisobga doir ma'lumotlar asosida qabul qilingan noto'g'ri xulosa va qarorlarga olib keladi.

2.6. Mustaqillik. Yana bir qoida – *mustaqillik*, birovga qaram bo'lmaslik qoidasini ko'rib chiqamiz. Bu buxgalter (auditor)ning omma oldidagi axloqiy yurish-turishining asosiy qoidasi bo'lib, omma orasida o'z amaliyoti bilan ko'ringan professional buxgalter, auditorlik xizmatlarini taqdim etuvchi va bu xizmatlarning buyurtmachisi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qo'llaniladi.

Bunday xizmat turlariga auditorlik xizmati va moliyaviy hisobotlarni obzorli tekshirish kiradi, bajarilgan ishlar natijasida auditor moliyaviy hisobot to'g'risida o'z fikrini to'liq yoki alohida qismlar bo'yicha bildiradi.

Bu topshiriqlar:

- 1) ishonchni ta'minlaydi;
- 2) ma'lumotni tasdiqlaydi.

Auditorlik topshiriqlari jamiyat manfaatlari asosida olib boriladi, shu sababli auditorlik guruhi a'zolari tomonidan audit tekshiruvini buyurtirgan buyurtmachining munosabatiga bog'liq bo'lmagan holda auditorlar etikasiga oid Kodeks talablariga amal qilinadi.

Buxgalterlar, auditorlar, auditorlik tashkilotlari xizmatlar buyurtmachisiga bog'liq bo'lmasligi zarur. Auditorlik tashkiloti yoki alohida auditor o'z fikrlarini xolis, taxminlarga asoslanib yuritmasliklari uchun manfaatlar qarama-qarshiliklari yoki boshqa shaxslarning haddan tashqari ta'siri va ularning xulosasi shunday qabul qilinishi kerakki, ularda ichki mazmun zarur: tafakkurning mustaqilligi va tashqi tarafdin ko'rsatilishi va mustaqil fe'l-atvor.

Fikr mustaqilligi professional muhokama yuritish bilan chambarchas bog'liq.

Professional muhokama qilish— bu professional buxgalterning tashkilotning moliyaviy ahvoli, moliyaviy natijalari va uning o'zgarishi haqida ishonchli ma'lumotlarning ochilishi va nisbatan malaka oshirish usullari to'g'risidagi asoslangan fikr-mulohazalari.

Mustaqil fikrlash — bu professional muhokama qilishga ijozat beradigan, tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lmagan fikrlash usuli bo'lib, ushbu usul professionalizmni muhokama qilish jarayonida obro'sini tushirib qo'yishi mumkin.

Mustaqil yurish-turish— bu axloqiy qo'rinishning shunday yo'li bo'lib, bunda barcha kerakli, yaxshi va aqlli ma'lumotlarga ega bo'lgan uchinchi shaxs faktlar va holatlardan chetga chiqish imkoniga ega bo'ladi, shuningdek, halollik, tartiblilik yoki auditorlik tashkilotida professional skeptitsizm asosli hisoblangan hollarda yoki tekshiruv guruhi a'zosi obro'sizlantirilgan vaziyatlarda ehtiyot choralarini qo'llash mumkin bo'ladi.

Shuningdek, xususiy mulk egasining vakillari va auditorlik tekshiruvini o'tkazishni buyurtirgan rahbariyat, mustaqil fikrlar bo'yicha auditor bilan muntazam ravishda ma'lumotlarni almashtirib borishni amalga oshiradilar, bu esa quyidagi holatlarda buyurtmachiga ijozat beradi:

- a) mustaqil fikrlashga tahdidni baholash va identifikatsiyalashda (tenglashtirishda) auditor fikrini diqqat bilan qabul qilish;
- b) tahdidni bartaraf etish yoki ma'lum darajada kamaytirish maqsadida ehtiyot choralarini ko'rish o'rinli ekanligini nazarda tutish;
- v) tegishli chora-tadbirlar ko'rish.

Bunday yo'l tutish tovlamachilik yo'li bilan tahdid qilish va yaqin munosabatlar mavjud bo'lgan holatlarda ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, buxgalter (auditor) etikaga oid kodekslar talabiga muvofiq halollik, xolislik va birovga qaram bo'lmaslik me'yorida mijoz yoki ish beruvchining ko'rsatmalarini puxtalik va yuksak mahorat bilan bajarishi shart.

3.3. Intizomiy chora-tadbirlar va ularning qo'llanilishi

Har bir tashkilotda MFB a'zosi zimmasiga professional yurish-turish yuqori standartlar bo'yicha olg'a siljishi va etikaga oid talablarga amal qilishni ta'minlash mas'uliyati yuklatiladi; bu munosabatlarga amal qilinmagan hollarda tegishli chora-tadbirlar qabul qilish sharti bilan tashkilotda tekshirish o'tkaziladi. Omma shunga ishonch hosil qilishi kerakki, har bir mamlakatda kasb va uning vakillari manfaatlari himoya qilinadi. Ushbu mamlakatda buxgalter (auditor) tomonidan etikaga oid talablarga amal qilinmagan vaziyatlarda tekshirish o'tkazishga to'g'ri keladi va zarur holatlarda intizomiy chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Intizomiy chora-tadbirlar qo'llash vakolati qonunchilikda yoki professional tashkilot ustavida ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Ko'plab mamlakatlarda ular professional tashkilot hisoblanmaydigan qonunchilik organlari tomonidan bo'ysundiriladi. Bunday boshqaruv organlari intizomiy chora-tadbirlarni qo'llashda hamfikir bo'ladilar yoki mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar va qabul qilingan chora-tadbirlarni tahlil qiladilar.

Intizomiy chora-tadbirlar odatda quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- professional ko'nikmalar standarti talablariga amal qilinmagani, chuqur bilimga ega emaslik, puxtalik bilan bajarilmaganligi sababli;
- etika qoidalariga rioya qilinmagani;
- obro'sizlantirish yoki vijdotsizlarcha o'zini tutishi.

Boshqa sanktsiyalar ogohlantirish, xizmatlar uchun mijozdan olingan to'lovni qaytarish, shuningdek, intizomiy chora-tadbirlar qo'llangan shaxs hisobidan boshqa ishtirokchi tomonidan ishning bajarilishi kabilarni o'z ichiga oladi.

Intizomiy va shikoyatlardan iborat ishlab chiqarish ma'lumotlarini ommaga oshkor qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday hollarda qatnashchilar va ishni ko'rishdagi barcha ishtirok etuvchilar bir vaqtda xabardor qilinadilar.

Biroq maxfiylik aspektlari (jihatlari) va yo'l qo'yilgan intizomning buzilishini e'tiborga olish kerak.

Boshqa davlatlarda ko'rsatilayotgan professional xizmat turining sifatini ta'minlash maqsadida auditor o'z ishida xalqaro auditorlik standartlari va o'zi professional faoliyat olib borayotgan davlatdagi standartlarni bilishi va qo'llay olishi shart.

Boshqa davlatda o'z professional xizmat turini ko'rsatar ekan, quyidagi qoidalarga amal qilishi shart:

■ agar auditor professional xizmat turi ko'rsatayotgan davlatda davlat tomonidan o'rnatilgan etikaga oid professional o'zini tuta bilish normalari Rossiya etikaga oid Kodeksida ko'zda tutilganidan talabchanroq bo'lsa, bunday hollarda Rossiya etikaga oid Kodeksiga amal qilinadi;

■ agar auditor professional xizmat turini ko'rsatayotgan davlatda professional o'zini tuta bilish etikaga oid normalari O'zbekiston Respublikasi auditorlarining etikaga oid Kodeksida ko'zda tutilganidan talabchanroq bo'lsa, auditor shu davlatda qabul qilingan etikaga oid normalarga amal qilishi shart;

■ agar auditor professional o‘zini tuta bilish etikaga oid xalqaro normalari O‘zbekiston respublikasi auditorlari etikaga oid Kodeksi talablaridan oshib ketsa, auditor xalqaro talablarga amal qilishi shart.

3.4. Axloq-odob kasbning asosi

Hozirgi holatda buxgalteriya hisobi va auditorlik sohasidagi professional buxgalterlar jamiyat manfaatini ko‘zlagan holda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etishda o‘zini tuta bilishning etikaga oid qoidalaridan kelib chiqishlari kerak. Professional etikaga oid savollar jamiyatda muhokama qilinayotgan asosiy savollardan biri hisoblanadi.

Ko‘plab professional tashkilotlar professional o‘zini tuta bilishning butun tafsilotlari kodekslarini ishlab chiqdilar. Bu kodekslar mazmunini quyidagicha xulosalash mumkin: iqtisodiyot va profesional etika ajralmas birlikda bo‘lishi kerak. Axloq-odobsiz buxgalteriya bo‘lmaydi.

Professional axloq-odob shuni talab qiladiki, ishonchli va vijdonli qarashlar doimo buxgalterning dunyoqarashini belgilab kelgan. Bu degani, buxgalter uchun kasbining asosida yotgan vijdon va qoidalardan iborat bo‘lgan qonundan yuksakroq narsa yo‘q.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mustahkam axloqiy qonun-qoidalar mazmuni?
2. Halollik qoidasining mazmuni qanday?
3. Xolislikqoidasining mazmuni qanday?
4. Chuqur bilimga egalik va professional sinchkovlik nima?
5. Maxfiylik qoidasining mazmuni qanday?
6. Professional axloqqoidasining mazmuni qanday?
7. Mustaqillikqoidasining mazmuni qanday?
8. Intizomiy chora-tadbirlar va ularning qo‘llanilishi qanday?

4-BOB. AHLOQ-ODOBNING ASOSIY TARTIBLARIGA KONTSEPTUAL YONDASHUV

4.1 Kontseptual yondashuvning asosiy hususiyatlari

4.2. Fundamental ma'naviy tartiblar buzilishi tahdidlari

4.3. Fundamental ma'naviy tartiblarning buzilishi tahdidlaridagi chora-tadbirlar

4.4. Ma'lumot to'plash va uni hisobotga taqdim etish ehtiyot choralari

4.1 Kontseptual yondashuvning asosiy hususiyatlari

Mutaxassis hisobchilar (auditorlar) ishlaydigan sharoitlar fundamental ma'naviy qoidalarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Hisobchilar ishlarida noahloqiy harakatlarga olib keluvchi bir nechta sharoitlar mavjud. Kodeks hisob kasblari uchun ahloq-odob harakatlariga bo'lgan tahdidlarning aniq turlarini ajratadi:

- 1) shahsiy qiziqish;
- 2) biror bir munosabat yoki fikrlar ostida bo'lish;
- 3) shahsiy munosabat;
- 4) qo'rqitish.

Bundan tashqari, vazivalar hususiyatlari turli xil bo'lishi mumkin, shuningdek, bunda turli muhofaza chora-tadbirlarining qo'llanilishini talab etuvchi tahdidlar kelib chiqishi mumkin. Ahloq-odob kodeksida ahloq-odobning asosiy tartiblariga amal qilish uchun kontseptual yondashuv belgilanadi, u mutaxassis hisobchi (auditor) bunday tahdidlarga nisbatan javob harakatlarini tenglashtirishi, baholashi va qo'llashini talab etadi.

Albatta, bunday tahdidlar vujudga keladigan barcha holatlarni oldindan ko'rish, shuningdek ularni kamaytirishga qaratilgan harakatlarni aniqlash imkoni mavjud emas. Lekin, mutaxassis hisobchi (auditor) fundamental ma'naviy tartiblarning buzilishini bilishi, tahmin qilishi yoki fahmlashi mumkin. Tahdidlarni kamaytirish/bartaraf etish aniq choralar bilan amalga oshirish mumkin.

Ushbu holatlarda bajarishi kerak bo'lgan *harakatlar* mavjud (1 rasm.):

- fundamental tartiblarning buzilishi tahdidi mavjudligini aniqlash;
- uning ahamiyatini baholash. Bu holatda baholash miqdoriy va sifat omillarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

- barcha tahdidlar ikki guruhga ajratilishi kerak: ahamiyatli va ahamiyatsiz;
- fundamental tartiblar buzilishining ahamiyatli tahdidini bartaraf etish yoki fundamental tartiblar tahdid ostida bo‘lmaydigan darajaga etkazish uchun ma’lumotlar ishlab chiqish.

Holatlarni tahlil qilish va tartiblarning buzilish tahdidlarini aniqlash	
Tartib buzilish tahdidlarini sifatli va miqdoriy baholash	
Ahamiyatli tahdidlar	Ahamiyatsiz tahdidlar
↓	↓
Tahdidlarni bartaraf etish choralari rejalarishi ishlab chiqish	Harakatlar talab etilmaydi
↓	
Fundamental tartiblar buzilishi tahdidlarini bartaraf etish	
↓	
Mutahassis xizmatlarini rad etish yoki mutahassis xizmatlarini taklif etishni to‘xtatish	

4.1-rasm. Fundamental ma’naviy tartiblar buzilishi tahdidlari darajasini kamaytirish choralari

Misol.

Hisobchi xizmatlarini taklif etgan holda konsalting tashkiloti nisbatan yaqinda tashkil etilganligiga qaramasdan, o‘zining shtatdagi hodimlarining mas’uliyatli va juda tajriba ekanligini ma’lum qildi. Ushbu holatda hisobchi tomonidan mutaxassis xizmatlarini ko‘rsatishda holislik tartiblarining buzilishiga nisbatan tahdidlar vujudga keladi. Holislik tahdidlarining vujudga kelishi tahmini mutaxassis hisobchi tomonidan bajariladigan vazifalarning aniq sharoitlari va ishlarning hususiyatlariga bog‘liq.


Holislik tartiblari buzilishiga bo‘lgan haqiqiy tahdidlar mavjudligida hisobchining harakati:

- 1) vujudga kelgan tahdidning ahamiyatini baholash;
- 2) uning ahamiyatlilik darajasiga bog‘liq holda, tahdidni bartaraf etish yoki uni muayyan darajagacha kamaytirishcholarini ko‘rish, masalan:

- manfaatdor shaxsni ishdan chetlatish;
- nazorat choralari amalga oshirish;
- bundan tahdidlarni vujudga keltiruvchi iqtisodiy yoki ishga aloqador munosabatlarni to‘xtatish;

- muammolarni tashkilot rahbari bilan muhokama qilish;
- muammoni mijozning manfaatdor shaxsi bilan muhokama qilish.

4.2. Fundamental ma'naviy tartiblar buzilishi tahdidlari



4.2-rasm. Fundamental ma'naviy tartiblar buzilishi tahdidlarining toifalari.

Hisobchining (auditor) mutahassislik harakatlariga bo'lgan salohiyatli tahdidlarning ko'p qismini toifalarga ajratish mumkin. Quyidagi *tahdidlar toifalarini* ajratadi (4.2-rasm)

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchilar va tashkilotlarda ishlaydigan mutahassis hisobchilar uchun fundamental ma'naviy tartiblar buzilishi tahdidlari vujudga kelishi tahmini bo'lgan holatlar bir biridan farqlanishi mumkin. Bu ko'p hollarda vazifalar hususiyati va ularga yuklatilgan vazifalarning farqiga bog'liq.

Mijoz ishida *shahsiy manfaatdorlik* tahdidlari vujudga kelishi mutahassis hisobchi (auditor), uning yaqin qarindoshlari yoki uning oila a'zolarining moliyaviy va boshqa qiziqishlari mavjudligida vujudga kelishi mumkin.

Moliyaviy manfaat – bu aktsiyalar yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan, ssudalar va bunday qiziqishga ega bo‘lish yoki ularga bevosita bog‘liq bo‘lgan moliyaviy ishlab chiqish qurollari bilan bog‘liq huquqlar va vazifalarni o‘z ichiga olgan holda, tashkilotning boshqa kredit qurollariga bo‘lgan qiziqishlar.

4.1-jadval

Mahsiy manfaat tahdidlari namunalari berilgan

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutaxassis hisobchilar (auditorlar)	Tashkilotlarda ishlovchi mutaxassis hisobchilar
Mijoz ishida moliyaviy manfaatdan muayyan foyda olish yoki mijoz bilan birgalikda moliyaviy manfaatga ega bo‘lish imkoniyatlari	Moliyaviy manfaat, zayom, kafolatlarning mavjudligi
Mijoz manfaati va shaxsiy manfaat o‘rtasida nizo holatidan muayyan foyda olish imkoniyati	Maoshning kattaligiga mavjud bog‘liqlik
Bir mijozdan olinadigan haqning umumiy miqdoriga mavjud bog‘liqlik	Rag‘batlantirish mukofotlari bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarning mavjudligi
Mijoz bilan yaqin ish munosabatlarining mavjudligi	Ish yo‘qotish ehtimoli
Mijozni yo‘qotish imkonidan xavotirga tushmoq	Tomondan tijorat ko‘rinishidagi bosim
Mijozning tashkilotida ishga ega bo‘lish imkoniyati	Foydadan olingan rag‘batlantirish mukofotiga bog‘liqlik, bunda ushbu mukofotning miqdoriga tashkilotdagi mutaxassis hisobchi tomonidan qabul qilingan qaror ta’sir etishi mumkin.
Vazifalarni bajarish natijalariga bog‘liq bo‘lgan shartli haqlar	Qiymati tashkilot-ish beruvchining qaroriga bog‘liq bo‘lgan yoki yaqin vaqt ichida o‘zgartiriladigan aktsiya (opsion) turlariga ega bo‘lish
Mijozga yoki rahbarlar kengashi (nazorat kengashi) har qanday a’zosiga yoki boshqa amaldor shaxsga kreditlar (kafolat) taqdim etish yoki ulardan kredit (kafolat) olish	Agar aniq maqsadlarga erishilgan bo‘lsa, tashkilot-ish beruvchining, ish sifatini hisobga olgan holda, aktsiya (opsion) turlariga yoki mukofotlarga ega bo‘lish huquqining mavjudligi

Muayyan holatlarda moliyaviy manfaat ahloq-odobning asosiy tartiblarining buzilishi tahdidiga olib kelishi mumkin.

Holislik yoki maxfiylik tartiblariga nisbatan shaxsiy manfaatlar tahdidlari moliyaviy foydaga ega bo'lish maqsadida qimmatli qog'ozlar kursiga ta'sir etuvchi ma'lumotlar yordamida boshqarish sabablari va imkoniyatlari mavjud bo'lgan holda vujudga kelishi mumkin.

O'zni nazorat qilishni yo'qotish tahdidi avval qaror chiqargan mutaxassis hisobchining xizmat predmeti haqidagi avvalgi muhokamalarini baholash zarurati holatida vujudga keladi. 4.2-jadvalda o'zni nazorat qilishni yo'qotish tahdidlari namunalari berilgan.

4.2-Jadval.

Hisobchining (auditor) o'zini nazorat qilishni yo'qotish tahdidlari vujudga kelishi mumkin bo'lgan holatlar namunalari

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutaxassis hisobchilar (auditorlar)	Tashkilotlarda ishlovchi mutaxassis hisobchilar
Moliyaviy tizimni tuzishda yoki uni tabdiq etishda ishtirok etgan mutahassis hisobchi tomonidan uning faoliyati haqida hulosasi berish	Xo'jalik qarorlarini qabul qilgan yoki ko'rsatilgan ma'lumotlarni tayyorlash bilan shug'ullangan mutahassis hisobchi tomonidan
Mutahassis hisobchi ishini qayta tekshirishda xatolarni aniqlash	xo'jalik qarorlari bilan bog'liq ma'lumotlarni tekshirish yoki tasdiqlash.
Vazifa (tekshirish) predmeti hisoblangan moliyaviy hujjatlar yoki boshqa hujjatlarni tuzish uchun foydalaniladigan dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash	Korxonalarni birlashtirishda, bunday birlashuvning texnik-iqtisodiy asoslari amalga oshirilgandan keyin, xisobchilik xisob-kitoblari tartiblari haqida u qaror chiqarish vaqtidagi vaziyat.
Mutahassis hisobchi rahbarlar kengashi a'zosi yoki yaqin o'tmishda a'zo bo'lgan yoki mijozning vakil shaxsi bo'lgan, yoki mijoz bilan vazifa predmetiga bevosita ta'sir o'tkazadigan lavozimda ishlaydi yoki yaqin o'tmishda ishlagan	
Mijozga vazifa predmeti (yoki audit vaqtida ko'rib chiqiladigan masalalar) bilan bog'liq savollarga bevosita ta'sir etadigan xizmatlar ko'rsatish	

Himoya qilish harakati tahdidi, mutahassis hisobchi biror bir holat yoki fikrni faol tarzda himoya qilsa va bu uning hulosasi va qarorlarining

holisligiga shubha uygʻotgan vaqtda vujudga kelishi mumkin. Himoya qilish harakati tahdidi 4.3-jadvalda berilgan.

4.3-jadval.

Hisobchining (auditor) himoya qilishga urinish tahdidlari vujudga kelishi mumkin boʻlgan vaziyatlar namunalari

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutaxassis hisobchilar (auditorlar)	Tashkilotlarda ishlovchi mutaxassis hisobchilar
Agar tashkilot uning mijozi boʻlsa, listing korxonalarining aksiyalarini oldinga surish	Mutahassis hisobchining oʻz tashkilotining bozordagi haqidagi arizalar yolgʻon yoki boshqa yoʻl bilan yanglishmovchilikka olib kelgan hollarda. Lekin tashkilot-ish beruvchining maqsad va vazifalariga koʻmaklashishida bunday taklif himoya tahdidlarini vujudga keltirmaydi.
Uchinchi tomon bilan munozara va bahslarni hal etishda mijozning ximoyachisi sifatidagi harakat	

Yaqindan tanish boʻlish ehtimoli tahdidi ish hamkorlar bilan shaxsiy yaqin munosabatda boʻlishda vujudga kelishi mumkin. Yaqindan tanish boʻlish tahdidi namunalari 4.4-jadvalda berilgan.

4.4-Jadval.

Hisobchining (auditor) yaqindan tanish boʻlish tahdidi vujudga kelishi mumkin boʻlgan holatlar.

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutaxassis hisobchilar (auditorlar)	Tashkilotlarda ishlovchi mutaxassis hisobchilar
Xizmat predmetlariga bevosita taʼsir etuvchi lavozimni egallagan mijozning xodimi bilan hisobchining yaqindan qarindoshlik aloqalarining mavjudligi	Mutahassis hisobchining qarindoshlari yoki oila aʼzolari oʻz egallagan lavozimlaridan muayyan foyda koʻrishga qiziqishlari mavjudligi
Mutahassis hisobchining rahbarlar kengashi yoki mijozning boshqa vakil shaxslari bilan yaqin qarindoshlik yoki oilaviy munosabatlarining mavjudligi	Mutahassis hisobchining qaror berishiga aniq taʼsir etuvchi uzoq muddatli ishga oid aloqalarning mavjudligi
Oʻtmishda shahsiy mulk egasi boʻlgan yoki mutahassis tashkilotlari rahbarlarining	Agar sovgʻalarning bahosi ahamiyatli boʻlsa sovgʻalar olish va alohida eʼtiborda boʻlish

rahbarlar kengashi tarkibiga kirishi yoki mijozda unga vazifa predmetiga mavjud yoki bevosita ta'sir etuvchi lavozimni egallagan bo'lsa	
Mijoz, uning rahbarlar kengashi, mansabdor shaxs yoki hodimlardan sovg'alar olish yoki alohida e'tiborda bo'lish, ularning bahosi aniq ahamiyatsiz bo'lga hollar bundan mustasno	
Korxonada katta hodimi va mijoz o'rtasida uzoq ishga oid munosabatlar mavjudligi	

Tovlamachilik tahdidi tomondan mutahassis hisobchiga o'z vazifalarini bajarishda ob'ektiv va kerakli mutahassislik shubhalar va tahdid yo'li bilan (haqiqiy yoki shunday deb qabul qilingan) to'sqinlik qilish holatlarida yuzaga keladi. Tovmachilik namunalari 4.5-jadvalda keltirilgan.

4.5-Jadval.

Hisobchiga (auditor) tovmachilik tahdidi vujudga kelishi mumkin bo'lgan holatlar namunalari

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutaxassis hisobchilar (auditorlar)	Tashkilotlarda ishlovchi mutaxassis hisobchilar
Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq miqdorini kamaytirish uchun bajarilayotgan ish hajmini asossiz cheklash maqsadida mijoz tomonidan bosim	Qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir etish maqsadida bosim o'tkazish, masalan hisobchilik hisoblar qo'llashda yoki shartnoma tuzishda
Sudda ishni qo'zg'atish	Hisobchilik hisoblarini tartiblarini qo'llashda kelishmovchilik yoki ishdan bo'shatish yoki boshqa lavozimga o'tkazishga olib keladigan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish shakllari
Mijoz uchun xizmat ko'rsatishdan uzoqlashtirish	

Mutahassis hisobchi shuningdek, ba'zi vaziyatlar bir yoki undan ortiq fundamental tartiblarning buzilishi tahdidi vujudga kelishiga olib

keladigan holatlarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun mutahassis hisobchilar doim buni yodda tutishlari lozim.

4.3. Fundamental ma'naviy tartiblarning buzilishi tahdidlaridagi chora-tadbirlar

Agar aniqlangan tahdidlar ahamiyatli bo'lsa, ushbu tahdidlarni bartaraf etish yoki maqbul darajaga olib kelish maqsadida kerakli choralar ko'rilishi zarur. Bu tarzda qarorlar rasmiylashtirilishi kerak.

Kerakli choralar ko'rilishida mutahassis hisobchi (auditor) aniqlangan tahdidga qay tarzda ta'sir o'tkazish haqida mustaqil qaror berishi kerak.

Mavjud tahdidlar va qo'llanilayotgan choralarga nisbatan kerakli barcha ma'lumotlarga ega bo'lgan uchinchi shaxs uchun nima foydali ekanligini tushunish zarur. Bunday muhokamalarni shakllantirishda tahdidning ahamiyati, vazifaning hususiyati, taklif etilayotgan foydalanuvchilar doirasi i korxonani boshqarish tizimi kabi omillar e'tiborga olinadi.

Tahdidlarni bartaraf etadigan yoki uni maqbul darajaga keltiradigan chora-tadbirlar toifasi:

- a) mutahassis normalari, qonunlar yoki me'yoriy dalolatnomalar tomonidan ko'zda tutilgan ehtiyot choralari (6 - jadval);
- b) ishchi hodimlar doirasida shartlashilgan ehtiyot choralari:
 - ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchilar (auditor) (4.3-rasm, 4.6-jadval)
 - takshilotlarda ishlaydigan mutahassis hisobchilar.

4.6-Jadval.

Mutahassislik normalari, qonunlar va me'yoriy dalolatnomalarda ko'zda tutilgan ehtiyot choralari

Ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va tajribaga bo'lgan majburiy talablar
1. Doimiy tarzda kasbiy malakani oshirish
2. Mutahassislik belgilovchi me'yoriy hujjatlar
3. Korporativ hulq bo'yicha rahbarni qabul qilish
4. Faoliyatning kasbiy standartlarini aniqlash
5. Nazorat organlari tomonidan mutahassis hisobchilarning ishini nazorat qilish va o'rnatilgan axloq-odob normalariga amal qilish
6. Intizomiy ta'sir choralarning mavjudligi
7. Mutahassis hisobchilar tayyorlagan hisobotlar, hujjatlar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarning yuridik vakil bo'lgan uchinchi shaxs tomonidan tashqi tekshirilishi

Hisobchining (auditor) ishchi hodimlar tomonidan shartlangan ehtiyot choralarini aniq vaziyatlarga bog‘liq holda farqlanadi. Ularni tashkilot faoliyatiga aloqador umumi (4.3-rasmga qaralsin) va vazifaga tegishli aniq (4.6-jadval) turlarga bo‘lish mumkin.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish vazifasi yuklatilgan mijozning ishchilari bilan ahloq masalalarini muhokama qilish *vazifaga tegishli* bo‘lgan aniq ehtiyot choralaridan biri hisoblanadi.

Vazifa turiga qarab ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi (auditor) mijoz tizimiga va jarayoniga kiritilgan ehtiyot choralaridan foydalanishi mumkin.

Fundamental ma'naviy tartiblarga amal qilishning muhimligi belgilangan korxonalarini boshqarish tartiblari	Ishchi guruh a'zolariga mijozning o'rniga boshqaruv qarorlarini qabul qilish yoki ularni qabul qilishga mas'ul bo'lishni etadigan qoidalar va tartiblar	Erkinlikka tahdidlarni aniqlash bo'yicha qoidalar va ishlar, ularning ahamiyatini baholash	Alohida mijozdan olinadigan foydalarga bog'liqlikni nazorat qilish va boshqarish qoidalari va tartiblar.
Vazifalarning bajarilishini tekshirish sifati monitoringi va ichki nazorat o'tkazish qoidalari va tartiblari	Korxonada faoliyatiga aloqador umumiy choralar		Fundamental ma'naviy tartiblarning buzilishi tahdidini aniqlash va ularning ahamiyatini baholash qoidalari va tartiblari
Fundamental ahloq tartiblarini ta'minlash bo'yicha korxonaning qoida va tartiblari			Korxonada qoida va tartiblariga amal qilishga yo'naltiruvchi ahloq mexanizmlari
Ishchi guruh tarkibiga kirmaydigan	Korxonada, vazifani bajarayotgan guruh a'zolari va mijozlar	Hodimlarni fundamental ma'naviy	Barcha xodimlarga korxonada qoidalari va tartiblari va ulardagi

shaxslarga vazifa natijalariga ta'sir etishni ta'qiqlovchi qoida va tartiblar	o'rtasida manfaatdorlik yoki munosabatlar turlarini tenglashtirish imkonini beruvchi qoida va tartiblar	tartiblarga amal qilish bilan bog'liq har qanday masala haqida korhona rahbariga xabar berishga yo'naltiruvchi qoida va tartiblar	o'zgarishlar haqida ma'lumotlarni o'z vaqtida etkazish, hamda ularni ushbu siyosat va tartibga o'rgatish
---	---	---	--

4.3-rasm. Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchining (auditor) ishchilar doirasida shartlangan umumiy ehtiyot choralari

Lekin maqbul darajagacha tahdidlarning ma'lumotlari uchun faqat bunday choralarga ishonish mumkin emas, chunki barcha ehtiyot choralari yuzaki hususiyatga ega va aniq bir harakat mexanizmiga ega emas. Lekin ular korxonada yoki auditorlik tashkilotlarida ish sifatini oshirish va mutahassis hisobchi (auditor) faoliyati jarayonida tavakkalchilikni kamaytirish uchun ishlab chiqilishi va qabul qilinishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yxatini aniqlash imkonini beradi.

4.7-jadval.

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchining (auditor) ishchilar doirasida shartlangan aniq ehtiyot choralari

Vazifaga tegishli bo'lgan aniq choralar	Mijoz tomonidan qo'llaniladigan choralar
Bajarilgan ishni tekshirish yoki kerakli maslahatlarni olish uchun boshqa mutahassis hisobchilarni (auditor) jalb etish	Mijozning rahbarlari tarkibiga kirmaydigan (masalan, tekshirish bo'yicha ko'mita) shaxslar tomonidan vazifa bajarilishi uchun faoliyat yurituvchi hisobchini (auditor) tayinlashni tasdiqlash va qo'llash
Erkin uchinchi shahsdan, masalan, hisobchilarning (auditorlar) o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarining mijozlarni tekshirish bo'yicha ko'mitasidan	Mijozning tajribali va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'suliyatli hodimlarga ega bo'lishi

maslahat olish	
Mijozning boshqaruv qarorlarini qabul qilish ma'suliyatini olgan hodimlari bilan ahloq maslalarini muhokama qilish	Mijoz tomonidan audit bilan bog'liq bo'lmagan vazifani topshirishda foydalanuvchining ob'ektiv tanlovini ta'minlovchi ichki tartiblarning qo'llanilishi
Mijozning boshqaruv hodimlariga ko'rsatilayotgan xizmat turlari va o'zaro haqlar miqdori haqida tushuncha berish	Mijozda tegishli kuzatuvni ta'minlovchi va korxonalar (auditorlik tashkilotlari) xizmatlari haqida ma'lumot beruvchi boshqaruvning korporativ tizimining mavjudligi
Vazifa bo'yicha ishning bir qismini bajarish uchun boshqa korxonalar jalb etish	
Mijozda moliyaviy qiziqishlari korxonaning erkinligiga tahdid soluvchi ishchilar guruhi a'zolarini tekshiruvdan chetlatish	
Vazifa uchun mas'ul bo'lgan guruhning boshqaruv hodimlarini almashtirish	

Ba'zi ehtiyot choralari *noahloqiy hulqning* aniqlanishi yoki unga to'qnashish ehtimolini oshirishi mumkin. Bunday choralarga quyidagilar kiradi:

Kadrlarni to'plash qoidalari va tartiblari, bunda asosiy e'tibor yuqori malakali hodimlarni tanlashga qaratilgan	Ishchi hodimlar ishining sifatini ta'minlash va ularga amal qilishni nazorat qilish bo'yicha qoida va tartiblar	
Tashkilot-ish beruvchilarda nazorat korporativ tizimning mavjudligi	Tashkilotda ishlaydigan mutahassis hisobchining	Qabul qilingan ahloq dasturlari va hulq qoidalari mavjudligi
Ichki nazorat va boshqaruvning samarali asboblarining mavjudligi	ishchilar doirasida shartlangan ehtiyot choralari	Rahbar va ishchilarning ahloqiy hulqlari tartiblarini to'plash
Ishchilarga tegishli ahloq maslalarini haqida, pul undirish xavfisiz, yuqori rahbarlarga xabar berganlik uchun ishchilarni rag'batlantirish	Boshqa professional buxgalterlar bilan maslahatlashish imkoniyatlari	

4.4-rasm. Tashkilotda ishlaydigan mutahassis hisobchining ishchilar doirasidan shartlangan ehtiyot choralari

➤ rahbarligi tashkilot-ish beruvchi, kasbiy standartlar yoki boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan shikoyat va talablar bilan bo'lgan samarali va keng yoritilgan ishlar tizimi, bu esa hamkasblar, ish beruvchilar va jamoa vakillariga kasbiy bo'lmagan va noahloqiy hulqlar omillariga e'tibor qaratish imkonini beradi.

➤ ahloqiy talablarning buzilish omillari haqidagi xabar bo'yicha aniq belgilangan ma'suliyat

Agar mutahassis hisobchi boshqa shaxslarning noahloqiy hulqi yoki u tomondan amalga oshirilayotgag noahloqiy harakatlar tashkilot doirasida davom etishini tahmin qilgan hollarda, u yuridik maslahat olish masalasini ko'rib chiqishi kerak.

Agar barcha mavjud ehtiyot choralari ko'rilgan bo'lsa, tahdidni maqbul darajaga keltirishga erishilmagan bo'lsa, u undan talab etilayotgan mutahassis xizmatini taqdim etishdan voz kechishi yoki taklif etishni to'xtatishi yoki lozim bo'lsa, mijoz oldida yoki u ishlaydigan tashkilot oldida o'z ma'suliyatidan voz kechishi lozim.

4.4. Ma'lumot to'plash va uni hisobotga taqdim etish ehtiyot choralari

1. Taxrir uchun ma'lumot tayyorlash talablari.

Tashkilotdagi mutahassis hisobchilar odatda, chop etilishi mumkin bo'lgan yoki tashkilot-ish beruvchi ichida yoki uning tashqarisida boshqa shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tayyorashda ishtirok etadilar. Bunday ma'lumotlarga molifviy yoki boshqaruv ma'lumotlari (masalan, ta'birlar va byudjetlar), moliyaviy hisobot, boshqaruv masalalarini yoki moliyaviy hisobot auditining bir qismi bo'lgan, rahbarlar tomonidan imzolangan auditorlar uchun ilova xatlarini muhokama va tahlil qilish.

Ma'lumot hisobchi tomonidan tayyorlanishi kerak: haqqoniy, holisona; kasbiy standartlarga muvofiq; bunday ma'lumotni malakali foydalanuvchi tushuna oladigan shaklda.

2. Moliyaviy hisobotlar standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotni taqdim etish.

Tashkilotning moliyaviy hisobotini tayyorlash va tasdiqlashga javob beruvchi mutahassis hisobchi moliyaviy hisobotga tegishli standartlarga muvofiq hisobot topshirishi kerak.

3. Mutahassis hisobchi tomonidan, uning ma'suliyati doirasida, ma'lumotlar ro'yxatini olib borish.

Mutahassis hisobchi o'z ma'suliyati doirasida ma'lumotlar ro'yxatini olib borishi kerak, bunda:

- moliyaviy-xo'jalik jarayonlari, aktivlari va ma'suliyatining hususiyatlarini aniq va ravshan tasvirlash;
- ma'lumotni o'z vaqtida va tegishli tarzda ro'yxatga olish;
- ta'riflanayotgan faktlarning mavjud barcha omillarini aniq va to'liq taqdim etish.

4. Fundamental tartiblar buzilishi tahdidi, masalan, ob'ektivlik tartiblari yoki kasbiy mulohazalilik va puxtalilik tartiblariga tahdid soluvchi shaxsiy manfaat yoki tovlamachilik tahdidlari mutahassis hisobchi yanglish bo'lgan yoki boshqa shaxslarning harakatlari natijasida bunday yanglish xabarlariga sabab bo'ladigan ma'lumotlarni tayyorlashda ishtirok etishga majbur qilgan vaziyatlar bosimida bo'lgan hollarda vujudga keladi,

5. Tahdidlarning jiddiylik faktorlari.

Tahdidlarning jiddiyligi bosim va bunday ma'lumotning mavjud va mumkin bo'lgan yanglishlik darajasi kabi faktorlarga bog'liq. Tahdidlarning jiddiyligini baholash zarur, agar ular aniq ahamiyatsiz bo'lsa, ularni bartaraf etish yoki maqbul darajaga keltirish uchun ehtiyot choralari ko'rish kerak bo'ladi.

Bunday choralarga tashkilotning o'zida yoki tegishli mutahassis organlarning rahbarlari bilan maslahatlashishi kiradi.

6. Tahdidlarni maqbul darajaga keltirish imkonining mavjud emasligi.

Tahdidlarni maqbul darajaga keltirish imkoniyati mavjud emasligida mutahassis hisobchi, uning fikricha yanglishlikka olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlashdan bosh tortishi kerak. Agar mutahassis hisobchi ma'lumotning yanglishligi mavjud yoki doimiy ekanligini bilsa, u tegishli organlarni abardor qilishni haqidagi masalani ko'rib chiqishi kerak. U shuningdek, yuridik maslahat olishi yoki ishdan ketishni talab etishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ahloq-odobning asosiy tartiblariga amal qilishga koʻptseptual yondashuvning maqsadi nima?

2. Mutahassislik ahloqining asosiy tartiblariga zarar etkazadigan faktorlarga taʼrif bering.

3. Fundamental maʼnaviy tartiblarning buzilishi tahdidlarining qanday turlarini bilasiz?

4. Shaxsiy manfaatga boʻlgan tahdid nima?

5. Tovlamachilik tahdidi vujudga kelishi mumkin boʻlgan vaziyatlarga misol keltiring.

6. Fundamental maʼnaviy tartiblarning buzilishi tahdidlarini bartaraf etish choralari toifalarini taʼriflang.

7. Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchining ishchilar doirasidan shartlangan ehtiyot choralariga misol keltiring.

5-BOB. ALDASH VA FIRIBGARLIK

5.1. Aldash: Turli shakllarda pora olish taklifi

5.2. Aldash: boshqa shaxsga pora taklif qilish

5.3. Hisobchilar firibgarliklarining muammolari

5.4. Firibgarlikning xuquqiy jihatlari

5.1. Aldash: Turli shakllarda pora olish taklifi

O‘z faoliyati davomida professional buxgalterlar va auditorlar mukofot evaziga muayyan xizmatni o‘tashlarini so‘raladigan vaziyatlarga duch kelishadi.

Mukofot sifatida turli xil sovg‘alar, mehmondo‘stlik belgilari, alohida e‘tibor yoki do‘stlik va sadoqat to‘yg‘ulariga noo‘rin undash belgilari bulishi mumkin. Ko‘rsatilgan xizmatlarga esa, hisobotlardagi aniqlangan buzilishlarga qaramasdan, ma‘lumotlarni qasddan o‘zgartirish, xulosa sifatida ijobiy ma‘lumotlar berishni va x.k o‘z ichiga oladi.

Bunday holatda hisobchi (auditor) o‘z vazifalarni insofsiz ravishda bajarishga, noqonuniy yoki noto‘g‘ri xarakterli harakatlar yoki maxfiy ma‘lumotlarni olishga majbur bo‘lishadi. Natijada *xolislik* va *maxfiylik* tamoyillari xavf ostida qoladi.

Agar professional hisobchi *bunday taklifni qabul qilgantaqdirda*, hisobchi tomonidan sodir etilgan hatti-harakatni oshkor qilinishi yoki yaqin qarindoshlar, shu bilan birgalikda hisobchi obro‘sigacha putur etkazilishiga *shantaj qilish tahdidi* xam kelib chiqishi mumkin.

Tahdidning jiddiyligi taklif qilingan mukofotning hajmi va xarakteriga bog‘liq.

Agar mukofot ahamiyatsiz va axloqiy xatti harakatlarga xilof tarzda ish yuritilmagan bo‘lsa, professional hisobchi bunday taklifni normal ish munosabatlari yuzasidan qilingan deb hisoblaydi va asosiy tamoyil buzilishlariga jiddiy tahdid solinmaydi.

Tahdidlarning ahamiyatsiz ekanligi haqida xulosa qilingan bo‘lsa ham, hisobchi ularni bartaraf etish yoki maqbul darajada kamaytirish choralarini ko‘rishi kerak.

Tahdidni bartaraf etishning imkoni bo‘lmasa, professional hisobchi bunday mukofotni qabul qilmasligi kerak.

Taklif qilingan mukofot qabul qilinganda asosiy tamoyillar buzilishiga hech qanday havf kuzatilmasada, qo‘shimcha choralarning qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, taklif tushgan

boshkarma boshliqlari yoki tegishli vakolatli shaxslarni, ushbu ishga daxldor bo'lgan uchinchi shaxsni xabardor qilishi lozim.

5.2. Aldash: boshqa shaxsga pora taklif qilish

Ba'zan, ma'lum bir shaxs yoki boshqarma haqida zarur ma'lumotga ega bo'lishi uchun *professional hisobchi tomonidan pora taklif qilinish holatlari* xam ko'zatiladi.

Bunday bosim boshqarma-ish beruvchisi, hamkasblar yoki raxbariyat tomonidan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari bunday bosim tashqaridan, ya'ni ma'lum bir shaxs yoki tashkilot tomonidan ish beruvchi – boshqarmaga foydali harakatlarni amalga oshirish yoki qaror qabul qilishga tayyorligini bildirgan holatda xam kuzatilishi mumkin va bu holat yollanma hisobchining o'z vazifa faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Professional hisobchi *uchinchi tomon xulosasiga ta'sir ko'rsatish maqsadida pora taklif qilishi kerak emas.*

Agarda, bunday bosim boshqarma ichi qonun qoidalari doirasida professional hisobchiga axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan taklif qilishiga majbur qilinsa, professional hisobchi axloqiy majoralarni halqilish qoidalari va ko'rsatmalariga rioya qilgan holda ish yuritishi shart.

Shuningdek, hisobchi bunday axloqiy muammolarni hal qilishi uchun professional hisobchilar tashkilotidan yoki yuridik maslahatchilardan maslahat olishi mumkin, masalan: hisobchi tashkilot firibgarlik ishlaridan vakolatli organlarni xabardor qilish to'g'riligi majburiyatiga ega yoki ega emasligi xaqida ma'lumot.



Pora uchun javobgarlik. Jinoyat kodeksidapora olish yoki pora berishni fosh qilish maqsadida, pora olish yoki berishni rasmiy vaziyat va sharoitlar yaratadigan ongli javobgar shaxs tomonidan uyushtirish deb belgilaydi.

Aldash shakllari turli xil bo'lish mumkin: maslahatlar, biror kishidan pora olish yoki berishga bo'lgan kinoyalar.

Pora shakllari xam turlicha: pul, qimmatbaho qog'ozlar, sovg'alar, zargarlik buyumlari, shahardan tashqari uylar, er uchastkalari, avtomashinalar, texnika jihozlari va x.k

5.3. Hisobchilar firibgarliklarining muammolari

Firibgarlik - rahbariyat orasida boshqaruvga dahldor bir yoki bir necha shaxslar yoki uchinchi shaxs tomonidan adolatsiz yoki noqonuniy foyda olish maqsadida qasddan sodir etilgan hatti-harakatdir. (1 rasm).

S o x t a l a s h t i r i s h s u b ' e k t l a r i	
Kompaniya rahbariyati va egalari	Kompaniya xodimlari
	
S o x t a l a s h t i r i l a d i	
Tashqi moliyaviy hisobot ma'lumotlari	Birlamchi hisobot ma'lumotlari
	
O q i b a t l a r i	
Boshqarmaga oid soxtalashtiriluv – tashqi foydalanuvchilar qaroriga ta'sir ko'rsatuvchi «tepadan pastga» soxtalashtiruv	Boshqarmaga oid bo'lmagan soxtalashtiruv –«pastdan tepaga» tashqi moliyaviy hisobotlar buzilishi soxtalashtiriluvi

5.1- Rasm. Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish

Xalkaro audit standartlari "moliyaviy hisobot auditida aniqlangan firibgarlikka nisbatan auditorning vazifalari" (XAS- 240) belgilaydi:

Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish xavfi— moliyaviy hisobotlar qismlari manipulyatsiyasi tufayli moliyaviy hisobotlarda muhim xato qilish imkoniyati.

AQShning qoidalari "moliyaviy hisobotlar auditida firibgarlikni aniqlash" audit standarti moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirishning 10 guruh xavf omillarini o'z ichiga oladi.

XAS-240 audit standarti "moliyaviy hisobotlar auditida yo'l qo'yilgan xato va firibgarliklarni ko'rib chiqishda auditor mas'uliyati" moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirishning 2 guruh xavf omillarini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy hisobotlarni foydalanuvchilarni adashtirish maqsadida insofsiz ravishda tuzish deb - jadvaldagi raqamlarni yoki ma'lumotlarni ataylab taqdim etilmasligi tushuniladi.

Moliyaviy hisobotlarni noto'g'ri tayyorlash qo'yidagilar natijasida kelib chiqadi:

– moliyaviy hisobotlar asosida tuzilgan hujjatlar yoki hisob yozuvlarini o‘zgartirish (shu bilan bir qatorda hujjatlarni soxtalashtirish);

– biznes operatsiyalari, voqealar haqida ma’lumotlarni, shuningdek boshqa tegishli axborotlarni qasddan yashirish yoki ma’lumotni tushirib qoldirish;

– ma’lumotlarni oshkora qilishga bog‘liq buxgalteriya hisobi tamoyillarini-o‘lchash, tasnifi kabilarni qasddan buzish.

Ejtimoiy ahamiyatga ega xo‘jalik sub‘ektlar doim moliyaviy hisobotlarni nazorat qiluvchi organlarga ega.

Direktorlar kengashi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. U ichki va tashqi auditorlar yagona fikrga kelisha olmagan taqdirda, mustaqil hakam, shuningdek kompaniyaning ijrochi direksiyasi (Kengashi) hisoblanadi.

Direktorlar kengashi a‘zolari:

– mulk egalari oldida hisobdorlikni anglab etishi va ularning manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishlari;

– tashqi auditor bilan "buyurtmachi -bajaruvchi" sxemasi tarzida munosabat tuzishi;

– ijro etuvchi kompaniya organi auditorlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga nisbatan cheklovlarni bartaraf qilish.

Direktorlar kengashining bir qismi sifatida uch qo‘mita tashkil qilinadi:

a) auditor (audit bo‘yicha qo‘mita);

б) ko‘rsatmalarga asosan;

в) mukofotlar bo‘yicha.

Auditorlik kumitasi moliyaviy xisobotlarni tayyorlash jarayonini nazorat qiladi.

Auditorlik qo‘mitalari kapital bozorlari rivojlangan mamlakat kompaniyalarida uzoq vaqtdan buyon mavjud. Anglo-sokson xuquq tizimi o‘rnatilgan mamlakatlarda auditorlik qo‘mitalari XX asrning 80-chi yildan beri mavjud. Fuqarolik qonun tizimi o‘rnatilgan mamlakatlarda esa XX asrning 90-chi yildan bo‘yon paydo bo‘la boshladi. *Auditorlik qo‘mitasi* - kompaniyaning direktorlar kengashi mustaqil direktorlaridan iborat nazorat organi bo‘lib, moliyaviy hisobot jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatini nazorat qiladi, aktsiyadorlar oldida mas‘ul bo‘lgan direktorlar kengashiga hisobotni taqdim qiladi. Auditorlik qo‘mitasi vazifalari:

– moliyaviy hisobotdagi ko‘rsatkichlarni to‘g‘riligini, shuningdek kompaniyaning rasmiy faoliyatini oldindan aytishini nazorat qilish;

– buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi savollar kiritilganida, professional hukmlar ob‘ektivligini tekshirish;

– ichki nazorat effektivligini ta‘minlash;

– ichki audit qismlari hisobotlarini ko‘rib chiqish;

– tashki auditor lavozimiga nomzod va uning taqdirlanishi haqidagi tavsiyalarni direktorlar kengashi va Boshqarmaga hisob berishni aksionerlarning umumiy yig‘ilishi kun tartibiga kiritish;

– tashki auditor ish unumdorligini va ob‘ektivligini baholash;

– mustaqil tashki auditorlarni ta‘minlash maqsadida, audit bilan bog‘lik bo‘lmagan maxsus ko‘rsatmalarni bajaruvchi tashqi auditorlarni yollashda kompaniya siyosatini ishlab chiqish.

Mamlakatda auditorlik qo‘mitalari bilan bir qatorda - *taftish komissiyasi* nazorat organi ham ish yuritadi.

Uning yaratilishi qonuniy aktlarda ko‘rib chiqilgan:

1)Fuqarolik kodeksi;

2)«Aksionerlik jamiyatlari to‘g‘risida» gi qonun va boshqalar.

Taftish komissiyasi auditorlik qo‘mitasidan farqli ravishda Direktorlar kengashi tarkibiy elementi hisoblanmaydi, mustaqil ravishda ish yuritadi.

Ichki audit xizmati buxgalteriya jadvallarida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xatoliklar va moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirishni oldini olish funksiyasini bajaradi. Ichki audit xizmati vazifalari:

– xatarlarni boshqarish;

– xaridlar nazorati;

– kompaniyaning pul oqimini nazorat qilish;

– kompaniyada xodimlar xarakatini nazorat qilish.

Shuningdek, kompaniya daromadini sezilarli darajada kamayishiga olib keladigan hisobchilarning firibgarlik sxemalari ham mavjud.

1.Hisobchilar tomonidan naqd bo‘lmagan pullarning o‘g‘irlanishi. Kompaniya direktori tomonidan ko‘p miqdordagi to‘lovlarni, ayniqsa ular orasida kichik summa miqdoridagi to‘lovlarni nazorat qilish qiyinchilik to‘g‘diradi. Bundayholatda, hisobchi pulning bir qismini begona hisob raqamiga o‘tkazadi va uni naqd pul ko‘rinishida qo‘lga kiritadi..

Odatda, bunday to‘lovlar qaysidir bir xizmat haqi sifatida amalga oshiraladi. Biror bir firmaga ko‘rsatilgan xizmati uchun ko‘p miqdorda qilingan to‘lovlar orasida qilingan kichik bir to‘lov (masalan, 2000 rub) nazardan chetda qolib ketishi hech gap emas.

2. *«Xo‘jalik» harajatlarini hisobdan chiqarish.* Bularga texnik vositalarni ish xolatida saqlab turish xarajatlari kiradi (artish, tozalash uchun suyuqliklar, tozalash uchun qog‘oz sochiqlar va x.k), kantselyariya mollari, oyna yopishtiradigan konverlar va h.k

Hisoblovchi shaxs - hisobchi, o‘zining jazosiz qolishiga ishonadi va mablag‘ning bir qismini kompaniya ehtiyojlari uchun sarflaydi, qolgan qismini esa o‘ziga o‘zlashtiradi.

Ushbu summani harajatdan chiqarish uchun kvitantsiyalarni tovar yoki boshqa kassa cheklari to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lovlar orasiga qo‘shib qo‘yadi. Odatda bu kvitantsiyalarni qo‘lga kiritish qiyin emas.

Agarda cheklar xaqiqiy, to‘g‘ri rasmiylashtirilgan, summalari to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, hisobchiga o‘g‘irlik to‘g‘risida ayb qo‘yish qiyin masala hisoblanadi.

3. *Xayriya tadbirini o‘tkazish.* Agar rahbarda aktivlarning bir qismini boshqa bir tashkilotga xayriya sifatida o‘zkazish niyati paydo bo‘lsa, hisobchida mablag‘ning bir qismini shaxsiy foyda sifatida o‘zlashtirish fikri to‘g‘iladi..

Hisobchi aktivlar o‘tkazilayotgan tashkilotning pulini yoki mahsulotini o‘g‘irlagan bo‘ladi.

4. *Xizmat ko‘rsatayotgan bankni almashtirish.* Hisob raqamida katta pul qoldiklari bor va katta pul aylanmalari qiluvchi mijozlar bankka ko‘p miqdorda foyda olib kelishadi va ko‘pincha bank xodimlari bunday tashkilot hisobchilariga o‘zlari murojat qilishadi. Hisobchi ma‘lum bir pul evaziga tashkilot rahbarini doimiy xizmat ko‘rsatiladigan boshqa bankka o‘tish kerakligiga ko‘ndiradi. Ko‘pincha pulning bir qismi avans sifatida to‘lanib, qolgan qismi boshqa bankka o‘tilgandan keyin to‘lanadi.

Turli sxemalar mavjud. Odatda bosh hisobchi bankni almashtirish masalasida pul topish yullarini mustaqil ravishda qidiradi.

5. *Hisobchi oldindan pul to‘lovini o‘tkazish kerak emasligini ma‘qo‘llaydi.* Ushbu turdagi firibgarlik soliqlarni hisoblash va to‘lash sotishdan tushum olingan keyin amalga oshiriladigan korxonalarda kuzatilishi mumkin.

Masalan, tashkilot yuridik shaxs bilan 100% to‘lov asosida tovar etkazib berish bo‘yicha shartnoma tuzish niyatida bo‘lsa, ikkinchi tomon oldindan to‘lovsiz ishlashga rozi.

Muammoni hal qilish uchun ikkinchi tomon hisobchiga ba‘zi bir mukofotlar va‘da qiladi, hisobchi esa ba‘zi bir dalillar topib, xujayinni "to‘g‘ri" qaror qabul qilishga o‘ndaydi.

Tajribali hisobchi har doim o‘z rahbarini ishontira oladi.

6. *Seminarda ishtirok etish uchun to'lov.* Hisobchi o'quv kurslarida, mashg'ulotlarda va x.k seminarlarda ishtirok etishi uchun to'lov mukofotlari olishi mumkin. Bunday mukofotlar katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki, seminarlarda ishtirok etish arzon emas.

Shuning uchun, hisobchi biror bir seminar, mashg'ulotlar va h.klarda ishtirok etishga ruxsat so'rasa, rahbariyat diqqat bilan tekshirib chiqishi kerak.

7. *O'g'irliklarni hisobchi tomonidan sahnalashtirilishi.* Qonunga ko'ra, hisobchi unga ishonib topshirilgan pul mablag'lari xavfsizligi uchun to'liq javobgardir.

Katta miqdordagi naqd puldan foydalanish xuquqi bo'lgan hisobchi, o'g'irlikni sahnalashtirishi mumkin. Masalan, hisobchi xodimlar oyligini olish uchun bankka bordi, lekin pul tashkilotga etib kelmadi - hisobchi pul o'g'irlanganligini ma'lum qiladi.

Rahbariyat o'z hisobchisining to'g'riligiga ishonsada, ba'zi bir muddat unidiqqat bilan kuzatib borishi kerak.

5.4. Firibgarlikning xuquqiy jihatlari

Buxgalteriya va soliq qonunchiligining doimiy ravishda o'zgarib turishi tufayli, hisobchining javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan ba'zi bir xatolarga yo'l qo'yilishi xam xavfdan holi emas.

O'zbekistan Respublikasining 2016 yil 13 aprelda tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni (O'RQ-404-sonli) "Buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari" nomli 12-modda ko'ra, ... *Buxgalteriya hisobi sub'ektining rahbari va buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari o'rtasida ayrim xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishga doir kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ular bo'yicha hujjatlar operatsiyalar amalga oshirilishining oqibatlari uchun shaxsan javobgar bo'lgan buxgalteriya hisobi sub'ekti rahbarining yozma farmoyishi bilan ijroga qabul qilinishi mumkin...*

1) Birlamchi hisob hujjatlaridagi ma'lumotlar iqtisodiy xo'jalik raxbariyati yozma ko'rsatmasiga asosan hisobchi tomonidan qabul qilib olinadi (qabul qilib olinmaydi) va bu ma'lumotlarga yagona javobgar shaxs bo'lib qoladi.


2) Iqtisodiy xo'jalik raxbarining yozma ko'rsatmasiga asosan, ob'ektning buxgalteriya hisobi bosh hisobchi tomonidan aks ettiriladi (aks ettirilmaydi) va bunda iqtisodiy xo'jalikning moliyaviy holati hisob sanasiga ko'ra to'g'riligiga, hisob sanasi davrida pul mablag'larining moliyaviy faoliyati va harakatiga to'liq javobgar shaxs hisoblanadi.

Javobgarlikka tortilish asoslari bog‘liq bo‘lishi mumkin:

- 1) Organlar tashkil qilgan qonun va normativ qoidalari tartibiga ko‘ra buxgalteriya hisobini yuritishdan bo‘yin tovlash;
- 2) Moliyaviy hisobotlarni o‘zgartirish;
- 3) Buxgalteriya hisobotini muddatida bajarilmasligi.

Javobgarlikning to‘rt turi mavjud:

- intizomiy;
- moddiy;
- ma‘muriy;
- jinoiy.



5.1-rasm. Javobgarlikning turi

Intizomiy javobgarlik.

Xisobchi firmaning xar kandy boshka xodimi kabi intizomni buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Intizomni buzilishi — bu xodim tomonidan o‘zining mansab vazifalarini bajarilmasligi, buxgalteriya va moliyaviy hisobotning noto‘g‘ri yuritilishi, ishga kechikish, ishni sababsiz qoldirish, ishga mast holatda kelishi va h.k

O‘zbekiston Respublikasining mehnat Kodeksi 181-moddaga asosanxodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo‘llashga haqli:

- 1) hayfsan;
- 2) o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima.
- 3) mehnat shartnomasini bekor qilish

Masalan, bunday holat hisobchi tomonidan o'z vazifasini sababsiz bir necha marotaba buzish, bir necha marta intizomiy hayfsan olganligi sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ish beruvchi tomonidan "bosh hisobchining o'zboshimchaligi, tashkilot mol mulk xavfsizligini bo'zishi yoki boshqa noqono'niy foydalanishlari tufayli tashkilotga zarar etkazilganligi" asosida mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin. (MK 186-modda.).

Moddiy javobgarlik.

Moddiy javobgarlik hisobchi tomonidan kompaniyaga zarar etkazilgan holatda kelib chiqishi mumkin. Bunday holatda, hisobchi kompaniyaning boshqa har qanday xodimi kabi, kompaniyaga etkazilgan zarar uchun to'g'ridan to'g'ri javobgar bo'ladi.

Agar mehnat shartnomasida moddiy javobgarlik punkti ko'rsatib o'tilmagan bo'lsa, etkazilgan zarar miqdori o'rtacha ish xaqqidan oshmasligi kerak. Agar mehnat shartnomasida javobgarlik punkti ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, etkazilgan zarar miqdori to'liqqoplanadi. Kompaniya va bosh hisobchi o'rtasidagi moddiy javobgarlik punkti Mexnat Kodeksining 3-§. 198-moddasida belgilab o'tilgan.

Etkazilgan zararni tiklash ma'lum qoidalar asosida olib boriladi.

1. Etkazilgan zarar miqdorini va uning sababini aniqlash uchun kompaniya tekshiruv o'tkazishi shart. Buning uchun komissiya tuzish xuquqiga ega.

2. Kompaniya rahbari yozma ravishda tushuntirish xati talab qilishi kerak. Ushbu shartlarga rioya qilinmagan holda, hisobchi sudga hukmni rad qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kompaniya daromadini sezilarli darajada kamayishiga olib keladigan hisobchilarning firibgarlik sxemalari ham mavjud.		
1.	<i>Hisobchilar tomonidan naqd bo'lmagan pullarning o'g'irlanishi</i>	Kompaniya direktori tomonidan ko'p miqdordagi to'lovlarni, ayniqsa ular orasida kichik summa miqdoridagi to'lovlarni nazorat qilish qiyinchilik to'g'diradi. Bunday holatda, hisobchi pulning bir qismini begona hisob raqamiga o'tkazadi va uni naqd pul ko'rinishida qo'lga kiritadi.
2.	<i>«Xo'jalik» harajatlarini hisobdan chiqarish</i>	Bularga orgtexnika parvarishi vositalari kiradi (sprey, tozalash uchun suyuqliklar, tozalash uchun qog'oz sochiqlar va x.k), kantselyariya mollari, oyna yopishtiradigan konverlar va h.k

		<p>Hisoblovchi shaxs - hisobchi, o'zining jazosiz qolishiga ishonadi va mablag'ning bir qismini kompaniya ehtiyojlari uchun sarflaydi, qolgan qismini esa o'ziga o'zlashtiradi.</p>
3.	<i>Xayriya tadbirini o'tkazish.</i>	<p>Agar rahbarda aktivlarning bir qismini boshqa bir tashkilotga xayriya sifatida o'zkazish niyati paydo bo'lsa, hisobchida mablag'ning bir qismini shaxsiy foyda sifatida o'zlashtirish fikri to'g'iladi..</p> <p>Hisobchi aktivlar o'tkazilayotgan tashkilotning pulini yoki mahsulotini o'g'irlagan bo'ladi.</p>
4.	<i>Xizmat ko'rsatayotgan bankni almashtirish</i>	<p>Hisob raqamida katta pul qoldiklari bor va katta pul aylanmalari qiluvchi mijozlar bankka ko'p miqdorda foyda olib kelishadi va ko'pincha bank xodimlari bunday tashkilot hisobchilariga o'zlari murojat qilishadi. Hisobchi ma'lum bir pul evaziga tashkilot rahbarini doimiy xizmat ko'rsatiladigan boshqa bankka o'tish kerakligiga ko'ndiradi. Ko'pincha pulning bir qismi avans sifatida to'lanib, qolgan qismi boshqa bankka o'tilgandan keyin to'lanadi.</p>
5.	<i>Hisobchi oldindan pul to'lovini o'tkazish kerak emasligini ma'qo'llaydi.</i>	<p>Ushbu turdagi firibgarlik soliqlarni hisoblash va to'lash sotishdan tushum olingan keyin amalga oshiriladigan korxonalarda kuzatilishi mumkin.</p> <p>Masalan, tashkilot yuridik shaxs bilan 100% to'lov asosida tovar etkazib berish bo'yicha shartnoma tuzish niyatida bo'lsa, ikkinchi tomon oldindan to'lovsiz ishlashga rozi.</p> <p>Muammoni hal qilish uchun ikkinchi tomon hisobchiga ba'zi bir mukofotlar va'da qiladi, hisobchi esa ba'zi bir dalillar topib, xujayinni "to'g'ri" qaror qabul qilishga o'ndaydi.</p>

6.	<i>Seminarda ishtirok etish uchun to'lov</i>	Hisobchi o'quv kurslarida, mashg'ulotlarda va x.k seminarlarda ishtirok etishi uchun to'lov mukofotlari olishi mumkin. Bunday mukofotlar katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki, seminarlarda ishtirok etish arzon emas. Shuning uchun, hisobchi biror bir seminar, mashg'ulotlar va h.klarda ishtirok etishga ruxsat so'rasa, rahbariyat diqqat bilan tekshirib chiqishi kerak.
7.	<i>O'g'irliklarni hisobchi tomonidan sahnalashtirilishi</i>	Qonunga ko'ra, hisobchi unga ishonib topshirilgan pul mablag'lari xavfsizligi uchun to'liq javobgardir. Katta miqdordagi naqd puldan foydalanish xuquqi bo'lgan hisobchi, o'g'irlikni sahnalashtirishi mumkin. Masalan, hisobchi xodimlar oyligini olish uchun bankka bordi, lekin pul tashkilotga etib kelmadi - hisobchi pul o'g'irlanganligini ma'lum qiladi.

Hisobchi ixtiyoriy ravishda etkazilgan zararni qoplashdan bo'yin tovlasa, korxonaning o'zi sudga murojaat qilishiga to'g'ri keladi.(207-modda MK).

Ma'muriy javobgarlik.

Ko'pincha, bunday shaxs bosh hisobchi bo'lib chiqadi. Soliq organlari ma'muriy xuquqbuzarlik to'g'risida faqatgina protokol tuzish xuquqiga ega. Bosh hisobchini javobgarlikka tortish va ma'lum bir miqdorda jarima solish faqat sud hukmi asosida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 175-moddasida. "Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob'ektlarning hisobini olib bormaslik yoxud bunday hisobni belgilangan tartibni buzgan holda olib borish, basharti bu harakatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliqning yoki boshqa majburiy to'lovlarning summasini kamaytirishga olib kelsa, shuningdek byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlarni, boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur bo'lgan soliq hisobotlarini, hisob-kitoblarni hamda boshqa hujjatlarni, debitorlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalarini yoxud to'lov muddati o'tgan debitorlik qarzi mavjud emasligi to'g'risidagi yozma bildirishni taqdim

etmaslik, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etish, xuddi shuningdek kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlarning asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaslik", xamda "Kassa operatsiyalarini yuritish tartibi va to'lov intizomini buzish, shu jumladan, qarzdor korxonalaridan to'lovlarni undirish bo'yicha soliq organlarining inkasso topshiriqlarini bajarmaslik, shuningdek debitorlik va kreditorlik qarzi muddatlarini o'tkazib yuborish hamda korxonalarining hisobvaraqlarida tegishli mablag'lar bo'lgan holda to'lovlarni amalga oshirishning belgilangan muddatlarini buzish, shuningdek pul mablag'larini hisobdan chiqarish navbatini buzish", -mansabdor shaxslarga jarima solishga sabab bo'ladi.

175-1-moddasida. Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish, mansabdor shaxslarga jarima solishga sabab bo'ladi.

175-2-modda. Moliya yilida byudjet va smeta-shtat intizomini buzish uncha ko'p bo'lmagan miqdorda sodir etilgan bo'lsa, xam -mansbdor shxslarga jarima solishga sabab bo'ladi. Uncha ko'p bo'lmagan miqdor deganda eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan miqdor tushuniladi. Shu bilan birga 175-4-xamda 175-5-moddalarida ish haqi, xodimlar sonini yashirish huquq buzarlilik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilishiga asos bo'lishi belgilangan.

Jinoiy javobgarlik.

Hisobchini jinoiy javobgarlikka ham tortish mumkin (168,173,184,184², 189 moddalar, Uz.R. JK).

184 modda soliqlarni to'lashdan bosh tortish holatlarida jazoni belgilaydi.

Jinoyat kodeksining 184 moddasining birinchi qismida takroran, ikkinchi qismida esa - ko'p miqdorda soliq to'lovlarini to'lamaslik kuzda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 168-moddasi. Firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish — eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

173-modda. Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish

O'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish ancha miqdorni tashkil etsa, —eng kam oylik ish haqining ellik

baravaridan etmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Kompaniya o'ta katta miqdordagi soliqni to'lamagan taqdirda ham, jazo yanada jiddiyroq: olti yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin. Uz.R.ning jinoyat kodeksi javobgarlikni og'irlashtirishning qo'yidagi holatlarini belgilaydi

1. Jinoyat oldindan kelishilgan holatda yoki guruh bo'lib sodir etilganda.

2. Jinoyat o'ta yirik miqdorda sodir etilganda

Jazoning yanada kuchayishi.

Og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lsa, jazo turi yanada ko'chayadi. Ayni vaqtda bunday holatlarda sud hakamlari kompaniya rahbarini yoki bosh hisobchini ikki yildan etti yil muddatga ozodlikdan mahrum qilishi yoki muayyan faoliyat turi bilan uch yil muddatgacha shug'ullanishlaridan mahkum qilishi mumkin.

So'ngi yillarda, jinoiy javobgarlikni yumshatuvchi bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xodimlarning intizomiy, moddiy ma'muriy va jinoiy javobgarliklarining me'yoriy asoslari

Intizomiy javobgarlik	<p>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT KODEKSI 176-modda. Xodimning burchlari <i>Xodim o‘z mehnat vazifalarini halol, vijdonan bajarishi, mehnat intizomiga rioya qilishi, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o‘z vaqtida va aniq bajarishi, texnologiya intizomiga, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilishi, ish beruvchining mol-mulkini avaylab asrashi shart.</i></p> <p><i>Xodimning mehnat vazifalari ichki tartib qoidalarida, intizom to‘g‘risidagi ustav va nizomlarda, korxonada qabul qilinadigan lokal hujjatlarda (jamoa shartnomalarida, yo‘riqnomalar va hokazolarda), mehnat shartnomasida aniq belgilab qo‘yiladi.</i></p> <p>181-modda. Intizomiy jazolar <i>Xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralari qo‘llashga haqli:</i> 1) hayfsan; 2) o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima. 3) mehnat shartnomasini bekor qilish</p> <p>182-modda. Intizomiy jazolarni qo‘llanish tartibi 183-modda. Intizomiy jazoning amal qilish muddati</p>
Moddiy javobgarlik	<p>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT KODEKSI 198-modda. Ish beruvchiga to‘lanishi lozim bo‘lgan zarar <i>Xodim ish beruvchiga bevosita etkazilgan haqiqiy zararni to‘lashi shart.</i></p> <p><i>Bevosita etkazilgan haqiqiy zarar deganda ish beruvchining mavjud mol-mulki ... amalda kamayganligi yoki yomon holatga kelganligi,...</i></p> <p>203-modda. Xodimning maxsus yozma shartnoma asosida unga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini ta’minlamaganligi uchun to‘liq moddiy javobgarligi</p>

ko'rib chiqish vaqti ko'rib chiqilmaydi. Javobgar shaxs doim soliq to'lovchi bo'lib qoladi.

Bunday holatda ayblanuvchi (yoki gumon qilinuvchi) sudda unga qarshi taqdim qilingan ma'lumotlarni rad etish huquqidan mahrumdir. Soliq to'lashdan bosh tortish qo'yidagicha: "halol bo'lish majburiyatini bajarmaslik", yolg'on yoki soliq firibgarligi kabilar bilan belgilanadi.

AQShda bunday holatlarda, soliq jinoyatlari uchun o'ta qattiq choralar ko'riladi. AQShdan tashkari, bunday yondashuv Shvetsiya, Frantsiya, Finlandiyada qo'llaniladi.

Evropacha yondoshuv esa soliq qonunlarini buzgan shaxslarga insonparvarlik ko'rsatish bilan ajraladi.

Evropa qonunchiligiga soliq jinoyatlarini jinoyat ishlari doirasidan ajratish xarakterlidir.

Bunday hollarda jinoiy jazo to'lovlar tizimi orqali amalga oshiriladi (soliqqa qo'shimcha) va sudlar emas, balki boshka davlat organlari tomonidan o'ndiriladi. Bunday yondashuv Indoneziya, Germaniya, Italiya davlatlarida keng tarqalgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Aldashni tasvirlab bering: turli shakllarda pora olish taklifini qo'lga kiritish; boshqa shaxsga pora taklif qilish.

2. Professional vijdotsizlik va firibgarlikning qanday huquqiy jihatlari bor?

3. Pora olish va berishning jinoiy javobgarligi nimada?

4. Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish xavf omillarini fosh qiluvchi standartlar?

5. Qalbaki moliyaviy hisobotlar firibgarliklarining chora tadbirlari?

6-BOB. OMMAVIY FAOLIYAT YURITUVCHI MUTAHASSIS HISOBCHILAR VA AUDITORLAR TOMONIDAN AHLOQ-ODOBNING ASOSIY TARTIBLARIGA AMAL QILISHGA KONTSEPTUAL YONDASHUVNING QO'LLANILISHI

6.1. Mutahassislik xizmatlarini ko'rsatish haqida shartnoma tuzish

6.2. Ikkilamchi fikr

6.3. Hisobchi va auditorni mukofotlash

6.4. Reklama va mutahassis xizmatlarini taklif etish

6.5. Sovg'alar va alohida e'tibor

6.6. Barcha xizmat turlarida holislik tartiblariga amal qilish

6.1. Mutahassislik xizmatlarini ko'rsatish haqida shartnoma tuzish

Mutahassislik xizmatlarini ko'rsatish haqida shartnoma tuzish hisobchilar (auditor) uchun muayyan xatar bilan bog'liq. Xatar yangi mijozni topishda hamda, topshiriqni olishda vujudga kelishi mumkin.

Yangi mijozni tanlashda hisobchi (auditor) ushbu mijozni tanlash asosiy tartiblarning buzilishiga tahdid solishi mumkinligi haqida dastlabki ishlarni olib borishi kerak.

Ehtiyot choralari tahlil qilishda tadbirlar rejalariga mijoz haqidagi umumiy va aniq malumotlarni kiritish lozim: shaxsiy mulk egasi, boshqaruv apparati, sanoat-xo'jalik va tijorat faoliyati uchun mas'ul menejerlar; ichki nazorat tizimi, nazorat organlari. Ba'zi hollarda mijozdan korporativ hulq yoki boshqaruvning amaliyotini takomillashtiradigan kafolatlangan majburiyatlarni olish zarur.

Agar olib borilgan ish natijasida mijozning shubhali hususiyatlari olingan bo'lsa, u holda haqqoniylik yoki mutahassislik hulqiga bo'lgan salohiyatli tahdidni tahlil qilish lozim.

Mijozning shubhali hususiyatlariga misollar:

➤ mijozning noqonuniy harakatlari (jinoyat yo'li bilan erishilgan foydani qonunlashtirish (chet davlatga o'tkazish);

➤ tartibsiz shahs nomiga ega bo'lish;

➤ muhosiblik (moliyaviy) hisobot tuzishda shubhali faoliyati.

Aniq vazifalarni ko'rib chiqishda mazkur topshiriqqa nisbatan o'zining mulohazalilik darajisini baholash zarur. Hisobchi (auditor) topshiriqni qabul qilish asosiy tartiblarning buzilishiga tahdidi solmasligi masalasini ko'rib chiqishi va ularning ahamiyatini haqida mulohaza yuritishi kerak.

Agar aniqlangan tahdidlar ahamiyatsiz bo'lsa, uni ko'rib chiqish va zarurat doirasida ularni bartaraf etish yoki maqbul darajaga keltirish ehtiyot choralari qo'llash zarur.

Tahdidlarni bartaraf etish choralari:

➤ mijoz faoliyatining mulohazaliligi, u bajarayotgan ishning murakkabligi;

➤ topshiriq, maqsad, hususiyat va bajarilishi kerak bo'lgan ish hajmining talablarini aniq tushunish;

➤ iqtisodiy faoliyatning tegishli sohasini bilish;

➤ hisobotni standart talablari bilan aniq bajarish;

➤ kerakli malakalarga ega hodimlarni etarli darajada jalb etish;

➤ aniq ishlarning bajarish uchun mutahassislarni jalb etish;

➤ topshiriqni bajarining haqiqiy muddatini kelishish;

➤ aniq topshiriq malakali bajarilgan vaqtda qabul qilinishini kafolatlaydigan sifat nazorati tartiblari va qoidalarga amal qilish.

Mutahassislik xizmatini ko'rsatish haqidagi shartnoma ustdagi ish vaqtida muayyan o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.

Hisobchiga (auditor) boshqa hisobchining (auditor) o'rniga ishlab turishni taklif etish holatlari vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda ushbu topshiriqni qabul qilmaslik sababining majudligi (mavjud emasligi) haqida mutahassislik mulohaza yuritish zarur.

Mazkur holatni tahlil qilgan holda ahloq-odobning asosiy tartiblari buzilishi tahdidlarining har qanday turlari e'tiborga olinadi.

Misol:

“Mir”AJida hamkasbi o'zgartirilganiga sabab mazkur topshiriqni qabul qilish haqidagi qarorga ta'sir etuvchi xisobchilik ro'yxatini olib borish bo'yicha mijoz bilan auditor o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqqanini auditor biladi.

Echim:

Ma'lumotni aniqlashtirish va topshiriqni qabul qilish imkoniyatlarini aniqlashtirish maqsadida topshiriqni bajarayotgan auditor bilan shaxsan uchrashish.

Ehtiyot choralari:

➤ topshiriqni bajarayotgan auditor bilan mijozning ishini to'liq va ochiq muhokama qilish;

➤ topshiriqni qabul haqida qaror chiqquniga qadar tahminiy auditor bilish kerak bo'lgan barcha faktorlar va vaziyatlar haqidagi ma'lumotlarni unga taqdim etishni so'rab topshiriqni bajarayotgan auditorga murojaat qilish mumkin;

➤ o'z nomzodligini qo'yish taklifiga javob berishda topshiriqni rad etish uchun kasbiy va boshqa sabablar mavjudligini aniqlash maqsadida topshiriqni bajarayotgan auditor bilan aloqada bo'lishi kerakligini ko'rsatishi zarur.

6.2. Ikkilamchi fikr

Auditor auditorlik hulosasida muhosiblik hisobotining haqiqiyliги haqida kodifikatsiya bo'lmagan va o'zgartirilgan fikrlarni bildirishi mumkin.

Kodifikatsiya bo'lmagan fikrlarni, agar u tashkilot faoliyat barcha mavjud turlarining moliyaviy ahvoli va ularning hisobot qoidalariga

muvofiq taqdim etilgan moliyaviy natijalarining moliviy hisobotlarda ko'rsatilganligining haqiqiy ekanligiga ishongan holda bildiradi.

Kodifikatsiya bo'lmagan fikrlar auditorlik hulosalarida quyidagi tarzda shakllanadi: "muhosiblik hisoboti [hisobot sanasi] holatiga moliyaviy ahvolning [auditorlik shahsi] barcha mavjud munosabatlarda aniq, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining [uning] natijalari va muhosiblik hisobotini tuzishning o'rnatilgan talablariga muvofiq yil davomida [hisobot yili] pul mablag'larining harakatini aks ettiradi".

6.1-jadval

O'zgartirilgan fikr shaklining auditorning fikr o'zgarishiga sabab bo'lgan vaziyatlar hususiyatlari va ularning moliyaviy hisobotga ta'siri darajasi haqidagi mulohazalariga bog'liqlik

O'zgargan fikrgning bildirilishiga sabab bo'lgan vaziyatlar hususiyatlari	Auditorning moliviy hisobotga ta'sirining tarqalishi darajasi haqidagi mulohazasi	
	Mavjud ta'sirlar, lekin har tomonlama emas	Mavjud va har tomonlama ta'sirlar
Moliyaviy hisobot aniq xatolar	Bahonalar bilan fikr	Salbiy fikr
Etarli kerakli auditorlik isbotini olish imkoniyatining mavjud emasligi	Bahonalar bilan fikr	Fikr bildirishdan bosh tortish

Auditor auditorlik hulosasida o'zgartirilgan fikrini bildirishi kerak, agar:

a) olingan auditorlik isbotida umuman ko'rilayotgan muhosiblik hisoboti mavjud yanglishliklarga ega ekanligi aniqlansa;

b) umuman ko'rilayotgan muhosiblik hisoboti mavjud yanglishliklarga ega emasligini aniqlash uchun etarli darajada auditorlik isbotini olmasa (6.1-jadval).

Agar auditor muhosiblik hisobotini haqiqiy emasligini aniqlasa, u ushbu vaziyatni auditorlikdan o'tayotgan shaxsning rahbari bilan muhokama qilishi kerak va hisobot tuzish qoidalari talablari va auditorlikdan o'tayotgan shaxsning rahbarlari tomonidan berilgan qarordan kelib chiqib, auditorlik hulosasida fikr o'zgartirilishi ehtiyoji bor yoki yo'qligini aniqlashi kerak.

Buyutrmachi har doim ham auditorning fikridan mamnun bo'lmaydi, buning natijasida esa u mazkur masala yuzasidan boshqa auditorga murojaat qilishi mumkin.

Ommaviy faoliyat yuritayotgan mutahassis hisobchiga muhosiblik ro'yxati standartlarining qo'llanilishi, audit, moliyaviy hisobot, aniq vaziyatlar tartiblari yoki auditorning mijoz bo'lmagan korxonaning aniq ishlari haqida ikkinchi fikrni bildirish iltimosi bilan murojaat qilgan holatlar asosiy tartiblar buzilishi havfini yuzaga keltirishi mumkin.

Ikkilamchi fikr faoliyat yuritayotgan muhosibga ma'lum bo'lgan faktlarga asoslanadi yoki u tushunarsiz isbotlarga asoslangan.

Mutahassislik mulohazalilik va kerakli puxtalilikning buzilishiga tahdid vujudga keladi.

Bunday tahdidning mavjudligi va ahamiyati boshqa barcha faktlar va kasbiy mulohazalar chiqarish vaqtidagi tahminlar holatiga bog'liq.

Ko'rsatilgan murojaatlarda ommaviy faoliyat yuritayotgan mutahassis hisobchi ahloq-odobning asosiy tartiblari buzilishining har qanday tahdidi ahamiyatini baholashi kerak va zarur hollarda ularni bartaraf etish yoki maqbul darajaga keltirishi ehtiyot choralari ko'rishi kerak.

Ehtiyot choralari:

➤ xizmatlar buyurtmachisiga faoliyat yuritayotgan hisobchi bilan muloqot qilishga ruxsat berishi yuzasidan murojaat qilish;

➤ xizmat buyurtmachisini fikr bildirish borasidagi barcha cheklovlar haqida xabardor qilish;

➤ faoliyat yuritayotgan hisobchiga fikr bildirilgan hujjatlarning bir nushasini taqdim etish.

Agar ko'rsatilgan fikrlarni talab etayotgan korxonada faoliyat yuritayotgan hisobchi bilan muloqot qilishga ruxsat bermasa, ommaviy faoliyat yuritayotgan hisobchi, barcha holatlarni ko'rib chiqqan holda, talab etilayotgan fikrni taqdim etish kerak yoki kerak emasligi haqida qaror berishi kerak.

6.3. Hisobchi va auditorni mukofotlash

Mijozdan aniq topshiriq olgan holda, hisobchi (auditor) uning xizmatlarga muvofiq har qanday mukofotni belgilashi mumkin. Aynan bir xil topshiriq uchun har xil auditorlar turli mukofotlarning tayinlashi mumkin, bu esa tartibsiz harakat hisoblanmaydi.

Bir necha hollarda hisobchi (auditor) vositachi bo'lganligi uchun mukofot olishi mumkin.

Misol:

Auditor talab etilayotgan aniq xizmatlarni taqdim eta olmaydi. O‘z mijozini boshqa auditorga yoki mutahassisga yo‘llagan holda, u bu uchun haq olishi mumkin.

Hisobchi (auditor) uchinchi shahsdan komissiya mukofotini olishi mumkin.

Misol:

Hisobchi (auditor) dasturiy ta‘minot tarqatuvchisidan mijozga tovar yoki xizmat sotgani uchun komissiya mukofoti olish mumkin.

Auditor boshqa auditor mijoziga shu mijozga ega bo‘lish maqsadida o‘zi mukofot taklif etishi mumkin, lekin u bu vaqtda mijoz tomonidan talab etilayotgan xizmatni taqdim qila olmaydi.

Ehtiyot choralari:

➤ mijozni bajarilayotgan vazifa shartlari, xususan, ko‘rsatilayotgan xizmatga haq to‘lash uslubi va hajmi bilan tanishtirish;

➤ topshiriqni bajarish uchun kerakli vaqt va malakali hodimni taklif etish;

➤ mijoz bilan mukofot berish uslublari haqida oldindan yozma shartnoma tuzish;

➤ sifat nazorati qoidalari va tartiblari;

➤ auditor bajargan ishning uchinchi shaxs tomonidan qayta tekshirish;

Hisobchi (auditor) buyurtmachidan olgan mukofotning umumiy summasi barcha mukofotlarning ko‘p qismini tashkil qilgan holat yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda mazkur mijozga bog‘liqlik va u bilan munosabatlarni saqlash xavfi vujudga keladi. Bularning barchasi shaxsiy manfaat yoki tovlamachilik tahdidini yaratadi.

Tahdidning ahamiyati baholanishi kerak, zarur hollarda tahdidni bartaraf etish yoki ularni maqbul darajaga keltirish ehtiyot choralari qo‘llash kerak.

Ehtiyot choralari:

➤ buyurtmachiga bog‘liqlikni qisqartirish;

➤ auditorlik tashkilotlarining ichki mustaqil malakali mutahassislari tomonidan olib borilgan audit tekshiruvini yoki bajarilgan ish sifatining tashqi tekshiruvini olib borish.

Auditor ommaviy ahamiyatli xo‘jalik sudeklarining audit buyurtmachisi shaxsiy mulk vakillariga muvkofotning umumiy summasining 15%dan ziyod haq olgan holda ikki yil davomida ketma-ket audit o‘tkazganligini ma‘lum qilishi kerak.

Bu holda, agar tahdid yuzaga kelsa, unda audit jarayonida bajarilgan ish sifatini tekshirish uchun auditorlik tashkiloti hodimi bo'lmagan malakali shahsni jalb qilgan holda maqbul darajagacha qisqartirish mumkin. Shuningdek, auditorlik hulosasi chiqishidan oldin audit bo'yicha topshiriqqa nisbatan sifat tashqi nazoratini o'tkazish uchun ushbu auditorlik tashkiloti a'zosi hisoblangan auditorlarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga murojaat qilish mumkin.

Audit buyurtmachisi uzoq vaqt davomida auditorga mukofot to'lamasligi mumkin. Bu holatda shaxsiy manfaatga tahdid yuzaga kelishi mumkin, ayniqsa, oldingi davr auditi uchun mukofotning asosiy qismi joriy yildagi auditorlik hulosalari chiqquniga qadar to'lanmasa.

Shuningdek, qarz summasi audit buyurtmachisi zayomiga teng deb qaralish mumkinligini tahlil qilish zarur. Agar bunday summa ahamiyatli bo'lsa, buyurtmachiga auditorlik xizmati ko'rsatishni to'atish yoki audit bo'yicha ishni bajarishni davom ettirish haqida mutahassis huqmini chiqarish kerak.

Shartli mukofot.

Ishni bajarganlik uchun o'zga ishonchlilikni ta'minlovchi shartli mukofot shaxsiy manfaatga shunday tahdidni vujudga keltiradiki, bunda hech qanday ehtiyot choralari uni maqbul darajaga keltira olmaydi. Binobarin, auditor bunday shartnomalarni imzolamasligi kerak.

Topshiriqni bajarganlik uchun o'zga ishonchlilikni ta'minlamaydigan shartli mukofot shaxsiy manfaatga tahdidni vujudga keltirishi mumkin. Bu esa vaziyatga bog'liq.

Agar mukofot moliyavif hisobotga nisbatan fikr bildiruvchi auditor tomonidan belgilangan bo'lsa, ushbu mukofotning miqdori auditor uchun ahamiyatli bo'lsa, u holda bunday tahdid shu darajada ahamiyatli bo'lishi mumkinki, bunda hech qanday ehtiyot choralari uni maqbul darajaga keltira olmaydi. Binobarin, auditor bunday shartnomalarni imzolasligi kerak.

6.4. Reklama va mutahassis xizmatlarini taklif etish

Yangi mijoz va buyurtmalarga qiziqqan ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi marketing uslublarini qo'llashi mumkin: reklama berishi, taqdimot o'tkazishi, oldingi siljish.

Bunda ahloq tartiblari, masalan, shaxsiy manfaatbuzilishiga, ayniqsa, xizmatni taklif etish, kasbiy yutuq va mahsulotlar kasbiy hulq tartiblariga to'g'ri kelmagan uslublar yordamida olib borilsa, tahdidlar vujudga kelishi hisobga olish zarur.

O‘z xizmatlarini bozorda oldinga surish va takliq etishda ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi kasbini deskreditatsiya qilmasligi kerak. Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi halol, haqqoniy va:

a) o‘z malakasini, ishdagi tajribasini, u taqdim etishi mumkin bo‘lgan xizmatlarni orttirib ko‘rsatmasligi;

b) boshqa hamkasblariga tuhmat qilmasligi va ularning ishi haqida beparvolik bilan javob bermasligi;

v) boshqa ommaviy faoliyat yuritayotgan mutahassis hisobchi bilan o‘z ishi natijalarini assosiz orttirib ko‘rsatmasligi kerak.

Taklif etilayotgan reklama va bozordagi ish uslublariga nisbatan shubhalar vujudga kelsa, ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi o‘zini boshqarish tashkilotlarning tegishli organlari bilan maslahatlashishi kerak.

6.5. Sovg‘alar va alohida e‘tibor

Mijoz hisobchiga (auditor) yoki uning yaqin qarindoshlariga va oila a‘zolariga sovg‘alar takliq etishi va alohida e‘tibor bildirishi mumkin.

Agar barcha kerakli ma‘lumotlarga ega bo‘lgan, aqlli va yaxshi xabardor bo‘lgan shahs bunday sovg‘alar yoki e‘tiborlarni ahamiyatsiz deb hisoblasa, unda auditor bunday taklifni oddiy ishga oid munosabatlari deb hisoblashi mumkin va uning hulosasiga ta‘sir etish yoki undan biron-bir ma‘lumotni olish niyati bo‘lmagan. Bunday hollarda auditor asosiy tartiblarning buzilishiga tahdidlar mavjud emas deb hisoblashi mumkin. Boshqa hollarda muayyan harakatlarni amalga oshirish zarur.

Ehtiyot choralari:

- topshiriqni bajarayotgan guruh tarkibidan ushbu hodimni chetlatish;
- nazorat tartiblarini kengaytirish;
- tahdidni vujudga keltiruvchi moliyaviy yoki ishga oid aloqalarni to‘xtatish;
- auditorlik tashkilotlari rahbarlari bilan masalani muhokama qilish;
- mijozning vakil shahsi bilan masalani muhokama qilish.

Xizmat buyurtmachisining aktivlarini qabul qilish va saqlash. Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi xizmat buyurtmachisining pul mablag‘larini va boshqa aktivlarini saqlash uchun olishi mumkin bo‘lgan, qonun tomonidan ruhsat etilgan vaziyatlar mavjud.

Bunday aktivlarni saqlashda u ahloq-odob asosiy tartiblarning buzilishi tahdidlarini hisobga olgan holda barcha qo‘shimcha qonun

talablariga amal qilish zarur. Masalan, kasbiy hulq yoki holislikka amal qilishga qarshi yo‘naltirilgan shahsiy manfaatga tahdid vujudga keladi.

Boshqa shahslarga tegishli aktivlar topshirilgan ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi:

a) bunday aktivlarni o‘z aktivlari yoki boshqaa tashkilot aktivlaridan alohida saqlashi;

b) bunday aktivlardan faqat tayinlanishi bo‘yicha foydalanishi;

v) har qanday vaqtda bu aktivlar uchun hisob bera olishi va ulardan tushgan har qanday daromad, dividendlar yoki olingan foyda uchun har qanday vakil shahs oldida hisobot talab etishi;

g) bunday aktivlarni saqlash va ro‘yxatga olishga aloqador barcha me‘yoriy huquqiy dalolatnomalarning barcha talablariga amal qilish kerak.

Xizmat buyurtmachisining aktivlarini saqlash uchun qabul qilishda bunday aktivlarning kelib chiqish manbaasi haqida ma‘lumot olish va bunday saqlashlar natijasidan yuzaga keladigan, me‘yoriy huquqiy dalolatnomalar bilan undiriladigan majburiyatlarni ko‘rib chiqish majburiy tartib hisoblanadi.

Misol:

Aktivlar noqonuniy faoliyatdan olingan (jinoyat yo‘li, korrupsiya, tijoratga oid pora berib sotib olish yo‘li bilan olingan daromadlarni qonunlashtirish (yuvish).

Ahloqning asosiy tartiblari buzilishiga tahdid vujudga keladi.

Echim:

Yuridik maslahat uchun murojaat qilish

6.6. Barcha xizmat turlarida holislik tartiblariga amal qilish

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchining ishida doimo holislik tartiblari buzilishiga tahdidlar vujudga kelishi mumkin. Ular turli vaziyatlarda yuzaga keladi: xizmat buyurtmachisiga yoki xizmat buyurtmachisining rahbarlari va hodimlari bilan o‘zaro aloqaga bo‘lgan qiziqishning mavjudligi. Holislikka tahdid yaqin qarindoshlik, juda yaqin ishga oid va shahsiy munosabatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi bunday xizmatlar ko‘rsatayotgan xizmat buyurtmachisiga bog‘liq bo‘lmaganlik talablariga amal qilishi kerak. Bunda topshiriq holisona, qiziqishlarning kelishmovchiliklarisiz yoki boshqa shahslarning salbiy ta‘siriz bajarilishi kerak, bunda uni shunday bajarish kerakki, chetdan qaraganda uning holis ekanligiga shubha bo‘lmasligi kerak.

Ommaviy faoliyat yurituvchi mutahassis hisobchi ahloq tartiblari buzlishiga bo'lgan har qanday tahdidlarning ahamiyatini baholashi va zarur hollarda ularni bartaraf etish yoki maqbul darajaga keltirish ehtiyot choralari ko'rish kerak.

Ehtiyot choralari:

➤ topshiriqni bajarayotgan guruh tarkibidan chetlatish; ^ nazorat tartiblarini amalga oshirish;

➤ tahdidlarni vujudga keltiruvchi moliyaviy va ishga oid aloqalarni to'xtatish;

➤ o'z tashkilotining yuqori rahbarlari bilan masalani muhokama qilish;

➤ shahsiy mulk egasi vakili yoki xizmat buyurtmachisi rahbarlari bilan masalani muhokama qilish.

Agar ehtiyot choralari tahdidni bartaraf eta olmasa yoki uni maqbul darajaga keltira olmasa, unda bunday topshiriqni bajarishda ishtirok etishdan voz kechish yoki uni bajarishni to'xtatish lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mutahassis xizmatlarini ko'rsatish haqidagi shartnomaning o'zgarishidagi ehtiyot choralari qanda?

2. Mutahassis xizmatlari marketingida hisobchining (auditor) ehtiyot choralari ayting. O'z xizmatlarining reklamasi qanday bo'lishi kerak, ularni oldinga surishda cheklovlar mavjudmi?

3. Oldingi hisobchining nuqtai nazarini tasdiqlovchi fikrlarni bildirishda auditorning harakati qanday?

4. Sovg'alar olishda va alohida e'tibor qaratilganda hisobchining (auditor) ehtiyot choralari qanday?

7-BOB. AMALIYOTCHI PROFESSIONAL BUXGALTER VA AUDITORLAR XIMATIDAN FOYDALANUVCHILAR TOMONIDAN MUSTAQILLIK TAMOILINI QO‘LLANILISHI

7.1. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni yuritish

7.2. Kompaniyalar birlashganda hisobchi (auditor)ning ahloqiy normalari

7.3. Moliyaviy manfaatdorlik sharoitlarida shaxsiy manfaatdorlik havfi

7.4. Ochiq amaliyotdagi hisobchi (auditor) ga qarz va kafolatlar berish

7.5. Qarindoshlik yoki shaxsiy munosabatlar.

7.6. Ochik amaliyotdagi xisobchilarning (auditorlarning) tadbirkorlik munosabatlari.

7.7. Audit buyurtmachisi bilan ish munosabatlari

7.1. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni yuritish

Buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi - tayyorlangan moliyaviy hisobotlar orqali foydalanuvchilarni hisob axboroti ehtiyojlarini qondirish.

Audit buyurtmachisi rahbariyati moliyaviy hisobotni belgilangan qoidalar asosida to‘g‘ri tuzilganligi va ma‘lumotlarning adolatli ekanligiga mas‘uldir.

Moliyaviy hisobotlardagi ma‘lumotlar tashkilot faoliyati bilan bog‘liq jismoniy va yuridik shaxslarda qiziqish uyg‘otadi. Moliyaviy hisobotlar jadvali ko‘pgina axborot foydalanuvchilarini yaqinlashtiradi va ular asosan ikki guruhga bo‘linishadi: ichki va tashqi axborot foydalanuvchilari.

Moliyaviy hisobotlarning *ichki foydalanuvchilariga* kiradi: zarur hisob axborotidan foydalanish xuquqiga ega shaxslar - tashkilot rahbariyati, menedjerlar, iqtisodchilar va tashkilot xodimlari. Bu shaxslar ushbu axborotlardan kompaniya moliyaviy ahvolini boshqarish, rejalashtirish, nazorat, baholash va kerakli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida foydalanishadi.

Moliyaviy hisobotlarni *tashqi foydalanuvchilariga* kiradi:

- Kompaniya ish faoliyatiga bevosita qiziquvchi shaxslar - kompaniya egalari (aktsionerlar), qarz beruvchilar, investorlar, davlat soliq organlari va kompaniyaning boshqa potentsial hamkorlari;
- Kompaniya ish faoliyatiga bilvosita qizuvchi shaxslar (turli audit va konsalting tashkilotlar, fond birjalari, baholovchilar,

huquqshunoslar, idora organlari, axborot agentliklari, matbuot va kasaba uyushmalari).

Moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining toifalari ularning ehtiyoj va qiziqishlariga qarab o'z axborot manfaatlarini qondirishi va maqsadlari ham turlichadir.

Aktsiyadorlar kompaniya daromadi va xususiy kapital o'zgarishlarini o'rganadi va potentsial aktsiyalarni daromad sifatida bozor qiymatini oshirish yo'li bilan dividendlar shaklida foyda olishga intiladilar.

Investorlar hisobotlarni o'z mablag'lari foydaligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishadi, shuning uchun ularni keng ko'lamdagi axborotlar qiziqtiradi: kapital tuzilishi, moliyaviy barqarorlik, kompaniyaning dividend siyosati va h.k.

Qarz beruvchilar - moliyaviy hisobotlardan kompaniyani mijoz sifatida ishonchliligi va qarz berish uchun ma'lum shart sharoitlarni aniqlash uchun foydalanishadi.

Tadbirkorlikda yana potentsial hamkorlar ham bo'lib, ular biznesda yangi hamkorlar qidirish maqsadida moliyaviy hisobotlardan foydalanishadi.

Kompaniya ishchilari va xodimlari kompaniyaning daromadi va barqarorligiga qiziqishadi, chunki ularning ish xaqi, ijtimoiy havfsizligi va ish bilan ta'minlanish kafolati aynan shunga bog'liq.

Audit firmalari taqdim etilgan ma'lumot xulosalarida ma'lumotlarning ishonchlilik va sermazmunligini tasdiqlashadi: moliyaviy hisobotlar menedjment sifatini baholashda nafaqat to'liq va ishonchli, balki anik talkin kilingan bulishi kerak (moliyaviy echimlarni ishlab chiqishda boshqaruvchi maqsad va vazifalariga to'g'ri kelishi kerak).

Soliq organlari davlat byudjeti va nobyudjet fondlarga soliq to'lovlarini o'tkazish uchun moliyaviy hisobotlarni nazorat qiladilar.

Davlat organlari moliyaviy hisobotlarni narxlar harakatini kuzatib borish, aktsiyalar harakati, iqtisodiy rivojlanish sur'atini kuzatish, hisobotlarni tuzish va hisob usullarini yaxshilash maqsadida o'rganishadi.

Kasaba uyushmalari organlari moliyaviy hisobotlarni ish haqi va mehnat shartnomasining muvofiqligini o'rganish uchun ishlatishadi.

Axborot agentliklari va ommaviy axborot vositalari moliyaviy hisobotlardan turli kompaniyalar faoliyatini qiyosiy tahlil qilish, individual tashkilotlar va sanoat rivojlanish tendentsiyalarini baholash, xo'jalik sub'ektlari reytingini tasniflash maqsadida ishlatishadi.

Zamonaviy sharoitda ma'lumotlarning kengaytirilgan va ochiqligi, mavjudlik va oshkoraligiga keng e'tibor qaratilmokda. Moliyaviy hisobotlar bir tadbirkorlik sub'ekti sifatida bozorga o'zaro ta'sir qilishi mumkin. Katta samaradorlikka erishish uchun foydalanuvchi bozorda ushbu tadbirkorlik haqida keng ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Axborotlarning barqaror oqimini yaratish uchun moliyaviy hisobotlar foydali bo'lishi kerak. Foydalilik mezonlari:

➤ *Axborot aniqligi* - uning rostgo'yligi va betarafligi, huquqiy shaklga egaligi, tekshiruv imkoniyati, aniqligi, tashqi foydalanuvchilarning qarori va hulosa axborotning to'g'riliga bog'liq;

➤ *Ishonchlilik* - axborot xato va noxolis baholarga ega emas, shuningdek ijtimoiy hayot dalillarini soxtalashtirmaydi;

➤ *Xolislik* - bir guruh kishilar manfaatlarini qondirish uchun xizmat qilishi kerak emas.;

➤ *Dolzarlilik* - axborot muhim va foydalanuvchi qaroriga ta'sir ko'rsatadi;

➤ *O'z vaqtidalik* - o'z vaqtidagi axborot ayni vaqtda kerakli ma'lumotlarga ega bo'lib, bevaqt keltirilgan axborot amaliy ahamiyatga ega emas;

➤ *Aniqlik* - foydalanuvchilar axborotdan maxsus mutaxassis yordamisiz foydalana olishlari lozim, axborotning yuqori darajada murakkabligi ko'zlangan maqsadga olib kelmaydi;

➤ *Taqqoslash* - tashkilot faoliyati haqidagi axborotlar raqobat tashkilotlarning rivojlanishini qiyoslash maqsadida turli davrlardagi ma'lumotlar bilan taqqoslangan bo'lishi kerak.

Auditor buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish xizmatlarini ko'rsatishi, oxir oqibat ushbu hisobot auditini olib borishi mumkin. Bunday holat o'z-o'zini nazorat qilish tahdidiga olib keladi.

Biroq audit jarayoni audit buyurmachisi rahbariyati va auditor orasidagi muloqot bilan kechadi va bu bog'liq bo'lishi mumkin.

a) buxgalteriya standartlari yoki hisob siyosatini qo'llanilishi yoki moliyaviy hisobot ma'lumotlarini oshkor qilish talabi;

b) raqamli aktivlar va majburiyatlarni qo'llagan holda moliyaviy va buxgalteriya nazorat usullarining to'g'ri kelishi;

v) Hisob yozuvlariga o'zgartirish kiritish taklifi.

Bunday muloqot auditning normal qismi hisoblanadi va odatda audit mustaqilligiga hech kanday tahdid yaratilmaydi.

Audit buyurtmachisi auditoridan texnik yordam so‘rashi mumkin, masalan, savollar echimi, hisoblar tahlili, moliyaviy hisobot uchun ma’lumot yig‘ish.

